

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TABIATSHUNOSLIK FAKULTETI

**5140300- KIMYO VA EKOLOGIYA ta'lim
yo`nalishi IV – kurs talabasi**

Navro`zov Lochin Tojiyevichning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Zamonaviy ta'lim vositalaridan kimyo fanini o'qitishda
samarali foydalanish

Ilmiy rahbar: kat. o'qit Husanova Z.E

Navoiy – 2013 yil.

MUNDARIJA:

I. KIRISH.....

II.ASOSIY QISM. ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI.

2.1. TA'LIM SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY TAMOYILLARI

2.2.DIDAKTIKA - TA'LIM NAZARIYASI SIFATIDA.

2.3.PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ILMIY ASOSLARI

2.4. TA`LIMNI ISLOH QILISH MASALALARI

III.TA'LIM VOSITALARIDAN KIMYO FANINI O'QITISHDA SAMARALI FOYDALANISH.....

3.1.KIMYO FANINING TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITILISHI

3.2.TA`LIM METODLARI VA VOSITALARI

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

"O'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, o'z kuchiga, o'zi tanlagan yo'lning to'g'riligiga ishongan inson doimo kelajakka ishonch bilan qaraydi. U jamiyatdagi fikrlar xilma - xilligidan cho'chimaydi, balki zamonaviy bilim va falsafiy qarashlarga, hayot haqiqatiga suyangan holda har qanday g'arazli niyat, tahdid va intilishlarni fosh qilishga qodir bo'ladi".

I.A.Karimov.

I. KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadi ozod, obod, erkin, farovon hayotni barpo etish bo'lib, bunday hayotning asosiy yaratuvchisi inson – uning bilimi, dunyoqarashi va faol faoliyati tashkil etadi. Zamonaviy ta'lim vositalaridan kimyo fanini o'qitishda samarali foydalanish - yangi davr avlodlar tarbiyasi hamda o'qitish jarayoniga yangicha yondashish zarur ekanligini ko'rsatmoqda. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg'unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos «Milliy model»ni hayotga tadbiq qilishga, bu esa o'z navbatida talabalarning bilim darajasini kengaytirib, ma'naviy va intellektual meroslarimizga to'g'ri munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Respublikada ta'lim tizimini isloh qilish, mazmunan jahon talablari darajasiga ko'tarish, zamonaviy bilim egasi bo'lgan kadrlar tayyorlash borasida Qonunlar, dasturlar qabul qilinmoqda. Bugungi globallashuv jarayonida demokratik fuqorolik jamiyatni barpo etishda, shaxs, jamiyat, oila, Vatan oldidagi burchi, mas'uliyatini chuqur his qilgan holda erkin, mustakil fikrlovchi insonni shakllantirish asosiy omildir.

Respublikada kimyo fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim vositalaridan samarali foydalanish, o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalarini ochib berishda, taniqli olimlar: N.Saidahmedov, I.Farberman,

B.Ziyomammedov,X. Ibragimov va boshqalarning ilmiy metodik asarlaridan foydalanildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib,o'qitish jarayonlarida ta'limiy siyosatning naqadar to'g'ri amalga oshirilishi goyat katta ahamiyat kasb etishini Bitiruv malakaviy ishinni bajarish asnosida ko'rsatmoqchi bo'ldim.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishi sifatida mazkur mavzuni tanlashimdan asosiy maqsad Respublikada ta'lim sohasidagi islohotlarning to'g'ri amalga oshirilishi,ta'lim vositalari va ulardan samarali foydalanishni targ'ib qilishga, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olishga,turli fanlarni o'qitishda zamonaviy ta'lim vositalarini qo'llashga, xalqaro miqyosdagi YUNESKO,YUNISEF,YUNITAR kabi tashkilotlarning ta'lim sohasiga oid olib borayotgan ish tajribalaridan o'rganishga hamda o'qitish jarayonida undan foydalanishga ozgina bo'lsa ham o'z hissamni qo'shishdir.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari: Bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayonida qo'yidagi vazifalarni bajarishni lozim deb topdim.

Kirish qismida: mavzuning dolzarbligi, bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari, mavzuning ilmiy yangiligi , amaliy ahamiyati hamda tadqiqot predmeti va ob'yekti, mavzuning o'rganilish darajasini qiyosiy tahlil qilish;

Asosiy qism I bobda. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari ,didaktika - ta'lim nazariyasi sifatida ekanligi,pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari va ta'limni isloh qilish masalalari, ta'lim vositalaridan kimyo fanini o'qitishda samarali foydalanish ishlarini tahlil qilish;

Asosiy qism II bobda. Ta'lim vositalaridan kimyo fanini o'qitishda samarali foydalanish,kimyo fanining ta'lim muassasalarida o'qitilishi,ta'lim metodlari va vositalarini o'rganish,kimyo fanlari dars mashg'ulotlaridan namunalar;

Xulosa qismida: zamonaviy ta'lim vositalaridan kimyo fanini o'qitishda samarali foydalanishga oid amaliy taklif va mulohazalar,foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini keltirishdan iborat edi.

Mavzuning ilmiy yangiligi. «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi»ning maqsadi, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

«Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi»da ilgari surilgan maqsadning to'laqonli ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutib, bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iborat ekanligi ko'rsatiladi:

- «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida, raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish, kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash va hokozolarni nazarda tutadi.

Mavzuning amaliy ahamiyati, shundaki, Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "O'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, o'z kuchiga, o'zi tanlagan yo'lning to'g'riligiga ishongan inson doimo kelajakka ishonch bilan qaraydi. U jamiyatdagi fikrlar xilma - xilligidan cho'chimaydi, balki zamonaviy bilim va falsafiy qarashlarga, hayot haqiqatiga suyangan holda har qanday g'arazli niyat, tahdid va intilishlarni fosh qilishga qodir bo'ladi". O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati bo'lib, ular ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. O'qitish usullari har ikkala faoliyatning a) o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, b) o'quvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim berish o'qituvchidan izlanishni, pedagogik mahoratni talab qiladi. Ilmiy salohiyati boy bo'lgan ustozgina mavzuni talabalarga mahorat bilan yetkazib beradi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi, kerakli vositalardan o'z o'rnida foydalaniladi.

Ta'lim metodi ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liq bo'lib, metodlar o'quvchilarning yoshiga ta'limning mazmuniga va funksiyasiga qarab tanlanadi.

MAVZUNING O'RGANILISH DARAJASINING QIYOSIY TAHLILI

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosati va uning asosiy yo'nalishlari hozirgi davrning eng asosiy muammolaridan bo'lib, bu haqdagi ma'lumotlar pedagogika va o'itish metodikasi to'g'risidagi barcha adabiyotlarda ma'lum ma'noda o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni.- T.: 1997. 29-avgust. Respublika Oliy majlisi 9 sessiyasi (1997 yil 29 avgust)da ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish va uni yangi zamon talabi darajasiga ko'tarishni nazarda tutuvchi muhim davlat hujjatlari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun 5 bo'lim, 34 moddadan iborat bo'lib, uning maqsadi fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilash hamda har kimning bilim olish mumkinligi kabi konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashdan iboratdir.

1-bo'lim,Umumiy qoidalarda, ta'lim sog'asidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, bilim olish, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqlari, ta'lim muassasasining huquqiy maqomi, DTS, ta'lim berish tili kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

2- bo'limda ta'lim tizimi va turlari mohiyati yoritilgan bo'lib, unga ko'ra ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini; ta'lim tizimini rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni; ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasa va tashkilotlarni;

Qonunning 3- bo'limida ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish, 4-bo'limida ta'lim tizimini boshqarish masalalari yoritilgan, 5- bo'limda esa Yakuniy qoidalar ifodalab berilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - T.: 1997. 29-avgust. «Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi»ning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ilgari surilgan maqsadning to'laqonli ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi. Dasturda bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iboratligi ko'rsatiladi:

- «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida, raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror

rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

- ta'lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

I.A. Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston», 1998 yil. O'zbekiston xalqining tub manfaatlarini: mamlakat mustaqilligi, yurt tinchligi, millatlararo totuvlik, fuqarolar o'rtasida o'zaro hamkorlik, mamlakat aholisi va har bir oila, mahalla – kuyning farovonligini ta'minlashdan iboratdir.

Milliy mafkurada xalqimizning umumiy manfaatlarini, orzu – umidlari maqsad va intilishlari o'z aksini topadi. Prezident Islom Karimov milliy istiqloq mafkurasining bosh maqsadini shunday belgilaydi: “Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt – saodati uchun doimo ma'suliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish - milliy istiqloq mafkurasining bosh maqsadidir”.

I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008. Mazkur asarda ekologik muammolarni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mosligi, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ekologik muammoning hal qilinishiga bog'liq ekanligi yoritib berilgandir.

O'zbekiston Respublikasi dunyodagi barcha mamlakatlar, jumladan Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan hamkorlik va hamjihatlikda tabiatni, atrof muhitni himoya qilish, tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish masalalariga katta e'tibor va ahamiyat berib kelinmoqda. Buning natijasi o'laroq, atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlari Respublikamizda ko'plab qabul qilingi.

Insoniyatning kelajakdagi taqdiri hozirgi davrda mavjud ekologik muammolarni qanday hal qilishga, ekologik muammolardan aholini, tabiatni qanday muhofaza qilishga bog'liq bo'lib qoldi. Bunday deyilishida juda katta ma'no, tarixiy zaruriyat, obyektiv ehtiyoj bor. Chunki ekologik muammo zamirida alohida xalqlar millatlar va mintaqalarnigina emas balki butun insoniyatning kelajak taqdiri yotibdi. Boshqacha aytganda tabiatni muhofaza qilish inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish asrimizning eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi. "Ekologik xavfsizlik" kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir.

Azizxo`jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU, 2003. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga haratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritish haqida fikrlar bildirilgan. Eng muhim kategoriyalar: shaxs, tarbiya, ta'lim, o'qitish, o'qish, bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanishga ta'rif berilgan.

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Tarbiya - deb tarbiyachi o'zi hohlagan sifatlarni

tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga ma'lum maqsadga ko'ra tizimli ta'sir ko'rsatishiga aytiladi.

Ta'lim – o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon. Ta'lim - maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan bilim qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui, ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati, malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli, ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmuidir.

Толипов О, Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари. – Т.: 2005. Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganilishi haqidagi fikrlar keltirilgan.

II.ASOSIY QISM. ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI.

2.1. TA'LIM SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY TAMOYILLARI

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi 9 sessiyasi (1997 yil 29 avgust)da ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish va uni yangi zamon talabi darajasiga ko'tarishni nazarda tutuvchi muhim davlat hujjatlari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi qabul qilindi. Ushbu qonun 5 bo'lim, 34 moddadan iborat bo'lib, uning maqsadi fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilash hamda har kimning bilim olish mumkinligi kabi konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashdan iboratdir.

1-bo'lim,Umumiy qoidalarda, ta'lim sog'asidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, bilim olish, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqlari, ta'lim muassasasining xuquqiy maqomi, DTS, ta'lim berish tili kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

2- bo'limda ta'lim tizimi va turlari mohiyati yoritilgan bo'lib, unga ko'ra ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini; ta'lim tizimini rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni; ta'lim sog'asidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasa va tashkilotlarni.

Qonunning 3- bo'limida ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish, 4-bo'limida ta'lim tizimini boshqarish masalalari yoritilgan, 5- bo'limda esa Yakuniy qoidalar ifodalab berilgan.

«KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI»ning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ilgari surilgan maqsadning to'laqonli ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi. Dasturda bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iboratligi ko'rsatiladi:

- «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida, raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

- ta'lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har bir bosqichda muayyan vazifalarning hal etilishi nazarda tutiladi. Ushbu vazifalar quyidagilardan iboratdir:

Birinchi bosqich (1997-2001 yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar) - Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish. Bu bosqichda, shuningdek, ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.


«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadini ro'yobga chiqarishning ikkinchi bosqichda ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayonining yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish vazifalarining ham hal etilishi alohida urg'u beriladi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish. Bu bosqichda, yana shuningdek,

- ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash;
- o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanishi;
- milliy oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish;

- ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinishiga erishish kabi vazifalarning ham ijobiy yechimi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» tarkibiy tuzilmasi quyidagicha aks etadi



Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy, tarkibiy qismlari. Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lim-tarbiya jarayoninigina qamrab olmay, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha hisoblanadi

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati yoritiladi. Milliy modelning o'ziga xos xususiyati

mustaqil ravishda to'qqiz yillik umumiy ta'lim hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etilishi bilan belgilanadi. Bu esa o'z navbatida umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga o'tilishiga zamin yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir, u uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. SHaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.

Davlat va jamiyat ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy etadi.

Shaxs va davlat o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga egabo'lib, har qanday jamiyat o'z fuqarolarining yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon etadi olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta'lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o'zligini namoyon etadi olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim qonunining 10-moddasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshirilishi ko'rsatiladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim»

11-17- moddalarda esa shu har bir tur mohiyati qisqacha yoritib beriladi. Bunga ko'ra maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlashi aytiladi. Umumiy o'rta ta'lim esa quyidagi bosqichlarda amalga oshishi ko'rsatiladi: boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar); umumiy o'rta ta'lim (1-IX sinflar). Qonunda o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limi olish maqsadida g'ar kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega ekanligi ta'kidlanadi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi. Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassis tayyorlaydi, ikki bosqichda: bakalavriat va magistraturada amalga oshadi.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-etti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi. Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi tarmog'i shakllanib bormoqda. «Xonadon bog'chasi» hamda «Bolalar bog'chasi – boshlang'ich maktab» majmualarini misol qilib

keltirish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalarida Bblalarga tasviriy san'at, musiqa, til va kompyuter savodxonligini o'rgatuvchi guruhlar tashkil etilmoqda. Bu kabi harakatlar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim to'qqiz yillik majburiy xarakterdagi umumiy hamda uch yillik majburiy-ixtiyoriy xarakterdagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidan iborat. Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'limni ham qamrab oladi. Mazkur bosqichda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarning o'zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, shuningdek, kasb tanlash ko'nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat o'quvchilarning umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga egaliklarini belgilaydi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish vazifasi maktab jamoasi va ota-onalar hamkorligida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazlari rahbarligida amalga oshiriladi.

O'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi sanalib, umumiy o'rta ta'lim negizida tashkil etiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ikki muhim yo'nalishi bo'lgan – akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Akademik litsey o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda o'zlarida fanni chuqur o'rganishga

qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lib, ular asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir. Kasb-hunar kollejlari yangi tipdagi ta'lim muassasalari bo'lib, ularning jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning puxta tanlanganligi, shuningdek, o'quv jarayonining zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida tashkil etilishi alohida e'tiborga loyiq.


Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich da tashkil etilib, mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat - mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim bo'lib, bakalavr darajasiga ega bo'lgan shaxs oliy ta'lim tizimi yo'nalishidagi o'zi tanlagan soha bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis hisoblanadi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo'ladi.

Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha, fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim bo'lib, magistraturadagi tahsil yakuniy klassifikatsion davlat attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi.

Magistr bakalavr darajasidagi mutaxassisdan farqli ma'lum ixtisoslik bo'yicha ta'lim olgan yuqori malakali mutaxassis hisoblanib, u ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida quyidagi turdagi oliy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadi:



O'z-o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi xizmatlardan to'laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish shaxsga yetuk mutaxassis bo'la olishi uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o'ziga bog'liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

«Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o'tish kafolatlanadi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Zamonaviy o'qituvchi qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak.

- O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.

- Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

- O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

- O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

- O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

- O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

- O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

- O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to'g'riligi, aniqligi, ifodaviyligi, ravonligi va boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

b) nutqning sofligi, jargon, varvarizm, ya'ni muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi, vulgarizm hamda konselyarizm-o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi lozim.

1. O'qituvchi kiyinish madaniyati, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklardan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi.

2. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. U mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning

uddasidan chiqa olishi zarur. O'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan mulohot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchining muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrihohlik, samimiylilik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur.

O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

2.2.DIDAKTIKA - TA'LIM NAZARIYASI SIFATIDA.

Bilim jarayonining ilmiy, nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini, ya'ni ta'lim, bilim berish, o'qitish nazariyasi bilan pedagogikaning mustaqil bo'limi didaktika-ta'lim nazariyasi shug'ullanadi.

Didaktika - grekcha so'z bo'lib, "didasko", ya'ni o'qitish, o'rgatish ma'nolarini bildiradi. Ta'lim qonuniyatlarini o'rganish, tahlil qilish jarayonida ta'lim tushunchasi uning mohiyati, mazmun va vaziflari, o'qitish prinsiplari, shakllari haqidagi bilimlarni bayon etiladi. Didaktika pedagogikaning «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish» va «qanday o'qitish» kabi savollariga javob izlaydi.

Ta'lim - insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni o'quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki bu jarayonda o'quvchi, talabaga ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Ta'limdagi yutuqlar avvalo o'qituvchiga bog'liq. Mutaxassis sifatida o'z fanini chuqur bilishi, pedagogik muloqot ustasi bo'lish psixologik - pedagogik va uslubiy bilim va malakalarni

egallashi, xar xil pedagogik vaziyatlarni zudlik bilan o'rganish va baholash, pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo'lish kerak.

Ta'lim jarayoni- ma'lumot mazmuni hamda unga oid faoliyat usullarini o'quvchilarning o'zlashtirishi uchun o'qitish va o'qish faoliyatlarining real aloqalashuvi, sababiyatli bog'lanishi, bir-biriga muvofiqlashuvi asosida ta'limning aktlar, zvenolar, sikllar shaklida makon va zamonda harakatlanadigan maqsadga muvofiq shirkat faoliyatidir¹.

Ta'limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi, ya'ni ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir.

Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shakllantiriladi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab, reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok tassavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi va muhim rol o'ynaydi. Ta'lim berish, yoshlarga bilim berish, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ya'ni haqiqatlarni ocha olishga qodir bo'lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

O'qituvchi, o'quvchi va talabalardagi fikrlash jarayonni to'g'ri yo'lga solish uchun amaliyot har qanday bilishning negizidir, degan qoidani hisobga olish zarur. Ta'limda o'qituvchi bilim berish bilan cheklanmaydi, u o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga ham rahbarlik qiladi, o'quvchilarda ishdagi mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o'stiradi va shu tariqa o'rganilayotgan narsaning ongli ravishda

¹ Розиков О. Р. ва бошқалар. Дидактика. Тошкент.: «Фан», 1997. 111- бетлар.

o'zlashtirib olishga erishiladi, materialni idrok qilishlari va tushunib olishlari bilan birga, uni puxta esda saqlab qolishlari to'g'risida ham g'amxo'rlik qiladi.

O'qituvchi o'quvchi - talabning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o'quv ishlarni olib borar ekan, avvalo ta'lim jarayoni orqali uch vazifani, ya'ni bilim berish orqali uch maqsadni hal qilish lozimligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini birlashtiradi.

1.Ta'limiy maqsad - o'quv materialining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiiq qila olishdir.

2.Tarbiyaviy maqsad - fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, imon - e'tiqodlarini shakllantirishdir.

3.Rivojantiruvchi maqsad - ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsning aqliy kamolatini, bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosa-batini rivojlantirishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o'quvchi - talabada mustaqil ishlash iste'dodi paydo bo'ladi. Uni o'ylashga o'rgatadi, ta'lim jarayonida tafakkur hukmronlik qiladi .

Birinchi bosqich - o'quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o'quvchi talaba ta'limning mazmuni bilan tanishib, o'zining bilish vazifalari nimalar iborat ekanligini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi.

Ikkinchi bosqich - ular o'quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar.



Uchinchi bosqich - yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar o'qituvchining qo'shimcha izohlari orqali mustahkamlanadi.

To'rtinchi bosqichda - ular o'zlashtirib olgan bilimlarni imkoniyatga qarab amaliyotga tadbiiq qiladilar.

Bularni bilish orqali o'qituvchi ta'lim - tarbiya jarayonini samarali boshqarishi mumkin. Shuning uchun o'quv jarayonining hamma bosqichlarida o'qituvchi yetakchilik va boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, o'qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmog'i sifatida qator vazifalarni bajaradi.

- 1.O'quvchi va talabalarda bilim ko'nikma va malakalarni hosil qiladi.
- 2.Ularda dunyoqarash, ishonch va e'tiqodlarini o'stiradi.
- 3.Yoshlarni muayyan darajada o'qimishli, muayyan tarbiyali kishilar bo'lib yetishishlariga, qobiliyat va is'tedodlarini o'stirishga erishiladi.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun o'qituvchida o'z kasbiga layoqat bo'lishi lozim. Layoqatlilik pedagogik mehnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo'lishdir. Bu, avvalo, pedagogik kasbning ijtimoiy roli va zaruriyatini yaqqol tasavvur qila olishda ko'rinadi. Bundan tashqari o'qituvchi o'quvchiga qiziqib qarashi, uning ehtiyoj va xususiyatlarini tushuna bilish lozim.



Bundan tashqari o'qituvchi ta'lim jarayonida har bir o'quvchi talabaning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi va hisobga olishi, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay bilishi, tahlil qila olishi va umumlashtira bilishi pedagogik mahorat uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilish, o'quvchiga nisbatan talabchan bo'lish, pedagogik vaziyatga qarab ulardan o'rinli foydalana olish, ta'lim natijalarini dastlabki va keyingi ko'rsatkichlar bilan taqqoslash va tahlil qilib borishi lozim.

Xullas o'qituvchi keng ko'lamdagi didaktik bilimlarga pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari darajasida ta'lim jarayonini tashkil qiladi va boshqaradi.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi va kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri, - deb ta'kidlanadi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida. Uzluksiz ta'lim tizimi o'quv - tarbiya jarayonining hamma bosqichlarini qamrab oladi hamda har tomonlama yetuk barkamol avlodni yeishtirish uchun shart - sharoitlar yaratadi. Dasturda uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari ham o'z ifodasini to'liq topgan. Bular

- ta'limning ustuvorligi,
- ta'limning demokratlashuvi,
- ta'limning insonparvarlashuvi,
- ta'limning ijtimoiylashuvi,
- ta'limning milliy yo'naltirilganligi,
- ta'lim va tarbiya uzviy bog'liqligi,
- iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori darajada bilim olishlari uchun shart - sharoit yaratish² kabilardir.

Pedagogikada ta'limning ilmiy - nazariy, uslubiy asoslari alohida, ya'ni didaktika qismida o'rganiladi. Bu jarayonda ta'lim prinsiplariga alohida to'xtaladi.

Ta'lim jarayoni murakkab hamda ko'p qirralidir. Bu jarayonning

² «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»// Barkamol avlod-Ўзбекистон taraqqiётининг пойдевори. Тошкент, 1998. 43-44- бетлар.

muvaffaqiyatli va samarali natijasi ta'lim jarayonining qonun qoidalari, ya'ni ta'limga qo'yilgan didaktik talablarga qay darajada amal qilishlariga bog'liq.

Ta'lim prinsiplari o'quv tarbiya jarayoniga qo'yiladigan ijtimoiy talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarishda rioya qiladigan qoidalar sifatida amal qiladi.

Ko'pchilik adabiyotlarda «o'qitish prinsiplari» iborasi ishlatiladi. Lekin ta'lim prinsiplari ta'lim jarayonining ikkala sub'ektiga- o'qituvchi va o'quvchiga ham daxldor. Shuning uchun ularni ta'lim prinsiplari deb atagan ma'qul, deb ta'kidlaydi prof.O.Roziqov.

Ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, qoidalar ta'lim prinsiplari deb ataladi.


Prinsiplar umumdidaktik kategoriya bo'lib, ular ta'limning barcha turlari, darajalari, sub'ektlari, o'quv-tarbiya jarayonining hamma komponentlariga dahldor umumiy qoidalardir.

O'qitish bilish faoliyatining ajralmas qismi sifatida, insonning tevarak - atrofdagi dunyoni bilishining umumiy qonunlari asosida sodir bo'ladi. Shuning uchun o'qitish tamoyillari ta'lim jarayonining eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Ta'lim tamoyillari o'quv yurtlari oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ular o'zaro bir - biri bilan mustahkam bog'liq holda bir sistemani tashkil etadi. Har bir darsda didaktik tamoyillarning bir nechtasi ishtirok etishi mumkin. Ular ta'lim oldida turgan asosiy maqsadlarni hal etishga o'z hissasini qo'shadi. Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda o'quvchi talabalarga mustahkam bilim berish, ularni erkin, mustaqil fikrlay oladigan insonlar qilib tarbiyalashda, ta'lim tamoyillarning mohiyatini chuqur anglash va hayotga tatbiq etish muhim muammolardan biridir.

O'quv yurtlarida beriladigan bilim ilmiy xarakterga ega bo'lishi, texnika va fanning so'nggi yutuq va kashfiyotlarini o'zida ifoda etishi lozim. Shunday ekan o'quvchi ilm fandagi yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim.

Ta'lim tamoyillari tizimi



O'qitishning ilmiylik tamoyillari ta'lim jarayonida o'quvchi - talabalarni hozirgi zamon texnika fan taraqqiyoti darajasidagi ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, ayniqsa talaba yoshlarni ilmiy tadqiqot usullari bilan tanishtirishga qaratilgan.

Ilmiylik ta'limning mazmuniga va usullariga aloqadordir. Shunday ekan bilim ilm -fan bilan o'quv predmeti o'rtasida hamkorlik, o'zaro bog'liqlik bo'lishiga erishish lozim. Ta'limning hamma bosqichlarida ilmiy izohlashlardan foydalanmoq lozim.

Bilimlarni tizimli va izchil o'zlashtirish qoidasi ta'limning ilmiyligi va tushunarligi qoidalari bilan uzviy bog'liq. Tizimlilik didaktik kategoriya sifatida Ya.A.Komenskiyning asarlarida asoslab berilgan edi. U tabiatda bir narsa ikkinchi narsa bilan bog'liq bo'lganidek, ta'limda har bir narsa ikkinchisi bilan aloqada bo'lmog'i, har bir mashg'ulotda o'rganilgan bilim keyingi o'rganiladigan bilimlarga yo'l ochishi lozim, deb hisoblaydi.

Professor O.Roziqov tizimlilikni ta'lim qoidasi sifatida quyidagi belgilarga ega ekanligini ta'kidlaydi: tartibga solinganlik, tashkiliylik, yaxlitlik, rejalilik, davomiylik, vorisiylik, istiqbolga yo'nalganlik³

Ta'limning tizimli bulishi uning izchil bo'lishi bilan bogliqdir. Izchillikka asoslangan ta'limning xarakterli belgisi shundaki, u o'quvchilarning oldindan

³ Roziqov O. P. va boshqalar. Дидактика. Тошкент: «Фан», 1997. 111- бет.

o'zlashtirgan bilim va malakalari zamirida yangi bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularning o'zaro bog'lanishlarini takomillashtirish va aksincha, yangi bilimlarni bayon qilish jarayonida oldindan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yanada chuqurlashtirish, kengaytirish va mustahkamlashni ta'minlashga qaratilgandir.

Tizimlilik va izchillik o'quv fanlarining bir-biri bilan bog'liq bo'lishini ham nazarda tutadi.

Nazariy bilimlarning amaliyot bilan turmush tajribalari bilan bog'lab olib borish ta'limning yetakchi qoidalaridan hisoblanadi. Ta'lim - tarbiya sohasidagi yutuqlar, eng avvalo nazariya bilan amaliyotning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Shundagina o'quvchi - talaba o'rganayotgan o'quv materiallarining tub mohiyatini tushunib yetadi va amaliyotda ulardan foydalana oladi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishlariga erishmog'i lozim. Faol ishtirok esa bilimlarni ongli tushunib o'zlashtirishga olib keladi.

Ta'limdagi onglilik va faollik, o'quvchidagi ko'tarinki kayfiyat, ko'proq bilishga intilish, mustaqil fikrlash va xulosalar chiqarishga undaydi. Bilimlarni ongli va faol o'zlashtirish o'qitish jarayonining psixologik tomonlarida o'z ifodasini topadi. O'qitishda nazariy bilimlar qanchalik qat'iy bayon etilsa, o'quvchi talabaning fikr yuritishi shunchalik aniq va ravshan bo'ladi va o'quv materiallarini ongli o'zlashtirish darajasi ham oshadi.

Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda yoshlarning mustaqil fikr yuritishi, mustaqil suratda bilim olishga intilishi talab qilinadi. Buning natijasida bilimlarni o'zlashtirish jarayoni ijodiy tus oladi. Bunday jarayonda o'qituvchi o'quvchining mashg'ulotlarga munosabati va bu jarayonda o'zini qanday tutishga e'tibor bermog'i lozim. Shunday ekan, ta'limning samaradorligi o'qituvchining o'quvchilarni o'qishga izchil va muntazam qiziqtirib borishga bog'liqdir. Buning uchun o'qituvchi ularni o'qishga ijodiy munosabatda bo'lishga, mustaqillikka, ishchanlikka odatlantirishi lozim.

Ta'lim jarayoni, uning mazmuni, unda ko'tarilgan hayotiy masalalar yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ta'lim shaxsni shakllantirishning asosiy manbaidir.

O'qitib tarbiya berish deganda ta'lim va tarbiyaning bir - biridan ajralmasligini tushunamiz. Har bir o'quv fani hatto, ayrim mavzu va mavzuchalari ham shubhasiz, tarbiyalovchilik xarakteriga ega.

Tabiiy fanlar- matematika, kimyo, biologiya, astronomiya va boshqalarni o'zlashtirish orqali o'quvchilarda ilmiy e'tiqod, dunyoqarash shakllana boradi. Ular dunyoni o'rganish mumkinligini ilmiy asosda anglab oladilar. Har bir narsa yuzasidan haqqoniy hukm chiqarishga o'rganadilar.

Gumanitar fanlarning tarbiyaviy ahamiyati yanada kengroq bo'lib, ular komil insonning axloqiy sifatlarini shakllantirishga har tomonlama yordam beradi.

O'quvchi-talaba ilmiy bilimlarni o'zlashtirar ekan, uning dunyoqarashi, iymon-e'tiqodi va qobiliyati o'sib rivojlanib boradi. Ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish o'qituvchining, avvalo, ta'limni uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etishiga, o'quv materiallarining mazmuni bilan bog'liq tarbiyaviy maqsadlarni aniq belgilashiga va o'quvchilarning bilim olishga qiziqтира olishiga bog'liqdir. Shu bilan birga o'qituvchining o'quvchilar oldidagi obro' - e'tibori muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Ta'limning ko'rsatmalilik qoidasi- ta'lim jarayoni sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Bu qoida o'qitish jarayonida ko'rish, eshitish, hid, ta'm, maza bilish, teri-muskul harakat kabi sezgi organlarining bir yo'la ob'ekt ustida safarbar qilinishini talab etadi.

Ta'lim jarayonida ko'rsatma materiallar o'quv predmetlarining xarakteri va mazmuniga qarab turli - tuman bo'lishi mumkin.

2.3.PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ILMIIY ASOSLARI

Ta'lim texnologiyali muammolari, mualliflik maktablari va o`qituvchi-novatorlarning ulkan tajribalari doimiy ravishda umumlashtirishni va sistemalashtirishni talab etadi. Ilmiy pedagogik texnologiya - o`qitishning maqsadi, mazmuni va metodlarini o`rganuvchi va ishlab chiquvchi, pedagogik jarayonlarni loyihalashtiruvchi pedagogika fanning bir qismidir.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi ta'lim amaliyotida uchta tartib bilan bir-biriga bog`liq darajalarda ishlatiladi.

Umumpedagogik daraja: umumpedagogik, umumdidaktik, umumtarbiyaviy texnologiya ta'limning ma'lum bosqichida ushbu region, o`quv yurtida yaxlit ta'lim jarayonini ifoda etadi.

Xususiy metodik daraja: xususiy metodik pedagogik texnologiya “xususiy metodik” ko`rinishida qo`llaniladi, ya'ni bir fan, sinf, o`qituvchi doirasida o`qitish va tarbiyalash ma'lum mazmunini amalga oshirish uchun metodlar va vositalar to`plami sifatida ishlatiladi.

Modulli darajasi: lokal texnologiya o`quv-tarbiyaviy jarayonning alohida qismlari, xususiy didaktik va tarbiyaviy masalalarni hal etish texnologiyasidan iborat (alohida turdagi faoliyat, tushunchalar shakllantirish, alohida shaxsiy sifatlarni tarbiyalash, dars texnologiyasi, materiallarni takrorlash va tekshirish texnologiyasi, mustaqil ishlar texnologiyasi va boshqalar).

Bundan tashqari texnologik mikrostrukturalarni ham ko`rsatdilar: usullar, qismlar, elementlar va boshqalar.

Texnologik mantiqiy tizimga tizilar ekan ular yaxlit pedagogik texnologiyani tashkil etib, texnologik sxema – texnologik jarayonni shartli ravishda tasvirlash, ularni alohida qismlarga ajratish va ular orasidagi mantiqiy bog`liqliklarni ko`rsatish.

Texnologik xarita - qadamma-qadam, bosqichma-bosqich harakatlar ketma-ketligi ko`rinishida qo`llaniladigan vositalarni ko`rsatib jarayonni tasvirlash.

Texnologiya metodikasidan natijalarining mustahkamligi, qayta yangilanishi, ko'plab "agarda" ikkilanishlarining yo'qligi bilan farq qiladi Texnologiyalar va metodikalarning aralashtirib yuborilishi ba'zan metodika texnologiya tarkibiga kirishiga, ba'zan esa aksincha, u yoki bu texnologiyalar - o'qitish metodikasi tarkibiga kirishiga olib keladi.

Har qanday pedagogik texnologiya ba'zi bir metodologik talablarga yoki texnologiklik mezonlariga javob bera olishi kerak. Pedagogik texnologiyalarning asosiy sifatleri quyidagilarda ifoda etiladi:

1. Konseptuallik. Har bir pedagogik texnologiyaga ta'lim maqsadlariga erishish falsafiy, psixologik, didaktik va ijtimoiy-pedagogik asoslarini ichiga oluvchi ma'lum ilmiy konsepsiyaga tayanish xos bo'lishi kerak.
2. Pedagogik texnologiya tizimlilik belgilariga ega bo'lishi kerak.
3. Boshqariluvchanligi o'qitish jarayoni diagnostik maqsadni ko'zlash, rejalashtirish, lohalashtirish, bosqisma-bosqich diagnostika qilish, natijalarni tuzatish maqsadida vosita va metodlarni o'zlashtirish mumkinligini ko'zda tutadi.
4. Samaraliligi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar aniq sharoitlarda mavjud va natijalar bo'yicha samarali, harajatlar bo'yicha optimal bo'lishi, o'qitishning ma'lum standartiga erishishni kafolatlashi kerak.
5. Qayta yangilanishi pedagogik texnologiyani boshqa bir turdagi ta'lim muassasalarida, boshqa sub'ektlar bilan qo'llanilishini nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiyalar tushunchasining ilmiy asoslarini shakllantirishdan maqsad, talabalarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat.

- ta'lim sohasida davlat siyosati va strategiyasining asosiy yo'nalishlarini; Pedagogik texnologiyalar tushunchasining ilmiy asoslarini, uning kategoriya va tamoyillarini; o'quv jarayonini tashkil etish shakllari va metodlariga qo'yiladigan zamonaviy talablarni;

-o'quvchi shaxsi, ta'lim jarayonida shaxs sifatlarining namoyon bo'lishini; Pedagogik texnologiyalarning tasnifi va asosiy jihatlarini;

-ta'lim jarayonini texnologizatsiyalash haqida tasavvurga ega bo'lishi;
zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni bilishi kerak;

- shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatlarini faol shakllanishi, Pedagogik texnologiyalarning tamoyillari bilan bog'liqlikda keyingi amaliy faoliyatda ta'lim jarayonini pedagogik jihatdan bir butun tarzda tashkil etish va amalga oshirish;

-ta'limga texnologik yondashuv asosida mashg'ulotlarning o'quv maqsadini qo'ya olish, pedagogik faoliyatni rejalashtirish;

-amaliy mashg'ulotlarni modellashtirish, qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlarini bashorat qila olish, xatolarni tuzata olish strategiyasini ishlab chiqish;

- ta'lim oluvchi shaxsining har tomonlama barkamol rivojlanishi, ta'lim jarayonining "jonli", ijodiy tashkil etishga yordam beruvchi ta'limning zamonaviy integrativ metodlarini egallash; ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini boshqarish metodlarini egallash;

-ta'lim standartlarining yangi talablari va o'zining ehtiyojlari bilan bog'liqlikda o'qitish va ta'lim olganlikni tashxis etishining turli usul va vositalaridan samarali foydalanish, bundan tashqari yangi metodik yo'llarini mustaqil yaratish va nazorat qilish ko'nikmalarini egallashi zarur;

- psixologik-pedagogik adabiyotlar bilan ishlay olish;

-zarur metodik hujjatlarni tuza olish;

-ilg'or pedagogik tajribalar va pedagogika fanining zamonaviy yutuqlaridan amaliyotda foydalanish bilan o'z-o'ziga ta'lim berish bilan shug'ullanish;

-engil pedagogik tadqiqotlar o'tkazish, ishga ijodiy yondashish; muloqotda ochiq va hamdard bo'lish;

- ijodkor, mustaqil fikrlovchi va har tomonlama barkamol shaxsni shakllantiruvchi ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish; individual, shaxsiy va yoshga oid o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda auditoriya bilan psixologik asosli muloqot va o'zaro harakatni tashkil etish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Ta'lim jarayonini texnologizatsiyalash –pedagogik jarayon samaradorligining muhim sharti. Ana shuning uchun ham bo'lajak pedagoglar Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari, ta'lim va tarbiya texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmalarini egallashlari zarur. Ularning pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy jihatlarini o'zlashtirishida alohida ahamiyatga ega.

Zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni o'rganish davomida mashg'ulotlarda ta'limning axborot texnologiyalari, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, interfaol metodlar qo'llaniladi.

2.3.TA`LIMNI ISLOH QILISH MASALALARI

Mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, "Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zaruriyat sezila boshlandi". Yurtimizning kelajagi, uning ertangi taqdiri, ozod va obod jamiyat qurilishiga erishishimiz ham ma'lum ma'noda shu islohatlarning natijasiga boglik edi. «Chunki ta'lim-tarbiya- ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad- ozod va obod jamiyat barpo etib bo'lmaydi»⁴ degan yurtboshimizning fikrlaridan ta'lim-tarbiya islohati, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga erishish mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Ta'lim-tarbiya tizimini, jumladan, kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilishning muhim omillari Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'rsatib berildi va ular quyidagilardan iborat:

- respublikaning demokratik huquqiy va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil ilgarilab borayotganligi;

⁴O'sha joydan. 29-30 bet.

- mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgarishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xom ashyo yo'nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyotining kengayayotganligi;
 - davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topganligi;
 - milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;
 - O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obro-u-tiborining mustahkamlanib borayotganligi⁵

Ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohatlarning asosiy yo'nalishlari:

- ta'lim tizimini, mazmunini isloh qilish;
- ta'lim-tarbiya boshqaruvini isloh qilish;
- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;
- ota-ona, o'qituvchi. O'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;
- va bu islohatlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tadbiq etishdan iborat.

Ta'lim islohatlarini amalga oshirish va ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun ta'limning yangi modeli yaratildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uning tarkibiy qismlari ko'rsatib berildi va ular quyidagilardan iboratdir:

shaxs- kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub`ekti va ob`ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

⁵ Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.T., «Sharq», 1998y, 38-bet.

uzluksiz ta`lim- malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo`lib, ta`limning barcha turlarini, davlat ta`lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko`rsatish muhitini o`z ichiga oladi;

fan- yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

ishlab chiqarish- kadrlarga bo`lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo`yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy texnika jihatidan ta`minlash jarayonining qatnashchisi⁶.

Ta`lim sohasidagi «portlash effekti» nazariyasi. «Ta`lim to`g`risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta`lim-tarbiya sohasidagi islohotlar va ta`limning yangi modeli amalga oshib borsa, mamlakatda juda katta o`zgarishlar sodir bo`lishi mumkinligini yurtboshimiz quyidagicha ko`rsatib berdilar.

«Ishonchim komil, agar bu islohotni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada biz hayotimizda ijobiy ma`nodagi «portlash effekti» ga, ya`ni uning samarasiga erishamiz»

Bu samara natijasida esa quyidagilar yuz berishi nazarda tutiladi:

Birinchiidan, ta`lim qonuni va Milliy dasturimizda nazarda tutilgan vazifalar to`liq amalga oshgan taqdirda ular ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta`sir qiladi va natijada mamalakatimizda mavjud muhit butunlay o`zgaradi.

Ikkinchiidan, ta`limning yangi modeli ishga tushgach, insonning hayotdan o`z o`rnini topish jarayoni tezlashadi.

Uchinchiidan, ta`limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsning shakllanishiga olib keladi.

To`rtinchiidan, ta`limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro`yobga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi, har bir inson o`zining qobiliyat, iste`dodini ishga sola oladi.

⁶ Barkamol avlod- O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., «Sharq», 1998y, 41-42 betlar.

Beshinchidan, fuqarolik jamiyati qurilishi ta`minlanadi, model vositasida dunyodan munosib o`rin olishga, o`zbek nomini yanada keng tarannum etishga erishiladi⁷.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta`kidlagan «portlash effekti»ga etib borish yo`lida uchraydigan qiyinchiliklarni engib o`tib borish va ularni hal etish masalalari faqat o`qituvchi- pedagoglarninggina vazifasi bo`lib qolmasdan, balki jamiyatimizni to`liq pedagoglashtirish muammosini ijtimoiy buyurtma sifatida keltirib chiqaradi. Har bir fuqaro tarbiyashunoslik asoslari bilan tanishishi, yangi pedagogik vosita, usul va texnologiyalar bilan ta`minlanishi hozirgi kun talabidir.

Ta`lim tizimi va o`quv-tarbiya ishlari sohasiga turli o`zgarish, yangilik va pedagogik texnologiyalarni jalb qilish muammolari «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ni ro`yobga chiqarish bosqichlarida o`ziga xos tarzda ko`rsatib berilgan. Mazkur dasturni ro`yobga chiqarishning birinchi bosqichi (1997-2001 yillar) da - «o`quv-uslubiy majmualarning hamda ta`lim jarayonini didaktik va axborot ta`minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish», ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar)da - «ta`lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o`quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o`quv adabiyotlari va ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan ta`minlash, uzluksiz ta`lim tizimini axborotlashtirishni amalga oshirish», uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) da «ta`lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, o`quv-tarbiya jarayonini yangi o`quv-uslu-biy majmualar, ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan tulik ta`minlash» vazifalari belgilab qo`yilgan.

Pedagogik texnologiya (PT) - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida uchinchi ming yillikda davlatimiz ta`lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o`qituvchi faoliyati yangilanadi, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg`ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

⁷ I.A.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq-millatni millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnali, 1998y, 2-son, 30-bet.

«Ta`lim to`g`grisida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta`lim-tarbiya tizimini isloh qilish, unga ilg`or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligi qayta-qayta ta`kidlanadi. Chunki mamalakatimiz tez sur`atlar bilan taraqqiy etib, jahon hamjamiyatida iqtisodiy -siyosiy mavqei kundan-kun ortib bormoqda. Lekin ijtimoiy sohada, ayniqsa, ta`lim - tarbiyada umumiy taraqqiyotdan orqada qolish hollari sezilmoqda. Ta`lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish bilan bunday holga barham berish mumkin. Quyidagi holatlar ilg`or texnologiyalarni ta`lim-tarbiya jarayoniga tadbiiq etishning dolzarbligini ko`rsatib beradi:

- «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadi va vazifalarini ro`yobga chiqarish uchun, ma`lum sabablarga ko`ra jahon hamjamiyati taraqqiyotidan ortda qolib ketgan jamiyatimiz taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o`rin olishi uchun, aholi ta`limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida ilg`or pedagogik tadbirlardan foydalanish zarurligi;
- an`anaviy o`qitish tizimi yozma va og`zaki so`zlarga tayanib ish ko`rishi tufayli «axborotli o`qitish» sifatida tavsiflanib, o`qituvchi faoliyati birgina o`quv jarayonining tashkilotchisi sifatidagina emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi yoki ta`lim-tarbiya jarayonida o`qituvchi va o`quvchi rolini o`zgartirish zarurligi;
- fan-texnika taraqqiyotining o`ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko`payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi;
- kishilik jamiyati taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo`lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o`tib borayotganligi;
- Barkamol avlodni tarbiyalash talabi ularga eng ilg`or bilim berish usuli hisoblangan ob`ektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi.

Pedagogika fani va amaliyotida keyingi paytlarda keng qo'llanilayotgan «pedagogik texnologiya» atamasi inglizcha «an educational technologist» so'zidan olingan bo'lib, «ta'lim texnologiyasi» degan ma'noni bildiradi.

"Texnologiya" tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan -texnos- san'at, hunar va logos- fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib, "hunar fani" ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi, texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon -bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlariga bosqichma- bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchining faoliyatidir.

Ishlab chiqarishda texnologiya so'zidan kelib chiqadigan quyidagi tushunchalar ishlatiladi:

Texnologik jarayon- ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig'indisi.

Texnologik operatsiya - ishchi tomonidan o'zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko'rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik xarita- ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik rejim - texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo'lib, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Ana shu ta'rif va tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chirsak quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchining talabalarga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Pedagogik

nashrlarda «o'qitish texnologiyasi», «ta'lim texnologiyasi» tushunchalari ham ishlatiladi.

O'qitish texnologiyasi- birinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli-harakat aspektini anglatadi. Bu, ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va konkret ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchi usul va vositalarlarning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni;

ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli- bayonli aspektini ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo'yicha pedagogik hamda o'quv faoliyatini loyihasini bajarishning bayonidir.

Ta'lim texnologiyasi- pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu texnik va inson resurslarini hamda ularni o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli.

Bugungi kunda ilmiy va ommabop adabiyotlarda «pedagogik texnologiya» tushunchasini ta'riflashda turli xil tasniflarni uchratishimiz mumkin.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDX davlatlari ichida birinchilardan bo'lib ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P. Bespa'ko "Pedagogik texnologiya - amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan pedagogik tizimning yoki bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir»⁸

Bu ta'rif mazmunidan quyidagi muhim tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- PT talabalarda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihalanaadi;

⁸ Bepalko V.P. Pedagogika i progressivnie texnologii obucheniya- M., «Pedagogika», 1995.

- loyihalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o'qituvchisidan katta mahorat talab etmaydi;
- yakuniy natija albatta kafolatlanadi.

T.S.Nazarova ta'rificha: «Pedagogik texnologiya- ta'lim- tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonida qo'llaniladigan usullar, vositalar majmuidir»⁹

YUNESKO tashkiloti ta'rifi bo'yicha, «Pedagogik texnologiya - ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir»¹⁰

Nemis olimi Kurt Levin, shvetsariyalik psixolog Jan Piajelar XX asrning 40- yillaridayok guruhda ko'pchilikning yagona bir qarorga kelishining psixologik tabiatini o'rganishar ekan, pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini alohida qayd etib o'tishgan.

Amerikalik olimlar Benjamin Blum, Levi Stross, Jon Morenolar fikricha «Pedagogik texnologiya ta'lim maqsadlarini ko'zlangan etalon asosida o'quvchilarning kuzatiladigan, o'lchanadigan harakatlari shaklida oydinlashtirishdir»¹¹

Rus olimasi N.V. Kuzmina pedagogik tizim o'zida ta'lim va tarbiya maqsadiga bo'ysindirilgan o'zaro bog'lik tarkibli elementlardan tashkil topishini uqtiradi¹².

Bir guruh rus olimlari «pedagogik texnologiyalar ob'ektiv jarayon va u yangicha sifatiy muammolarni echish uchun ta'limni evolyusion bosqichga ko'tarish shartlaridan biri» deb qaraydilar (M.V. Klarin, M.Klark, T.A.Ilina). M.V. Klarin fikricha, PT - o'quv jarayoniga yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib o'quv jarayonini loyihalashdir.

Rossiya pedagoglaridan *V.M.Monaxov* pedagogik texnologiyaga quyidagi ta'rifni beradi: «Pedagogik texnologiya- avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib

⁹ Nazarova T.S. Pedagogicheskaya texnologiya: noviy etap evolyusii.- T., 1999, 16 b

¹⁰ Farberman B.L. Progressivnie pedagogicheskie texnologii.-T.,1999, st.3.

¹¹ Lewy Itross, Bathory Z. The Toxonomy of Educational obyektiv in Continental. Evrop, Univ. of Chikago.1994.P.146-163/

¹² Kuzmina.N.V. Metod sistemnogo pedagogicheskogo issledovaniya.-L., LGU. 1980, st. 172.

boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir» va uning xususiyatiga e'tibor qaratib, «PT- o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub`ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi»,- deydi

O'zbekistonlik olim *N.Sayidaxmedov* fikricha: «Pedagogik texnologiya- bu o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta`sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir»¹³

Yirik pedagog olimlardan *M.Ochilov*, pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosaga keladi: «Pedagogik texnologiya- tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta`lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob`ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta`sirini inobatga olib, ta`lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir»¹⁴. U pedagogik texnologiyaga ta`lim usuli, ma`lum ma`noda ta`lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui deb qaraydi. «Pedagogik texnologiya ta`lim-tarbiyaning ob`ektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida o'quv jarayonlari, ta`lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir», -deb ta`rif beradi.

Ko'rib turganimizdek, «pedagogik texnologiya» tushunchasini ta`riflashda hali yagona fikrga kelinganicha yo'q.

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiya- ta`lim-tarbiya jarayonlari, ta`lim usuli, vositalari, shakllari, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasidagi munosabatlar majmui bo'lib, ta`lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuvni talab qiladi va o'zida ta`lim maqsadlarini oydinlashtirishni, natijasini kafolatlashni va ob`ektiv baholashdek muhim belgilarni aks ettiradi .

Pedagogik texnologiyaning vazifalarini o'qitishning har bir bosqichida ta`limning mazmunini belgilash, ta`lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini

¹³ Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. «Xalq ta'limi», 1999 y, 1-son, 98- bet.

¹⁴ Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar.o'quv qo'llanma. Qarshi, «Nasaf», 2000 y, 13-bet.

tayyorlash, predmetning mazmuniga kiritish uchun vaziyatli matnlar, testlar tayyorlash, shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma`naviy fazilatlarni o`zlashtirishga yunaltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta`limning natijasi va o`zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob`ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiya XX asrning oxirlarida deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda tez tarqalib, nufuzli YUNESKO tashkiloti tomonidan ham tan olindi va qo`llab- quvvatlandi. Hozirda ko`pgina mamalakatlarda muvaffaqiyatli qo`llanilib kelinmoqda.

Ko`pgina mamlakatlar pedagogik texnologiyadan foydalanib, ta`lim-tarbiya tizimini rivojlantirishda, o`quvchilar o`zlashtirishini oshirishda sezilarli yutuqlarga erishdilar

Ta`limni texnologiyalashtirishning asosini, ta`lim jarayonini, uning samaradorligini oshirish va ta`lim oluvchilarni, berilgan sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o`quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to`liq boshqarish g`oyasi tashkil etadi.

Pedagogik texnologiya yordamida 3- ming yillikda O`zbekiston ta`lim-tarbiya tizimida ham tub o`zgarishlar yuz berishi, o`qituvchi- o`quvchi faoliyati yangilanishi, yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg`ulari tizimli ravishda shakllantirilishi ko`zda tutilmoqda.

Hamma vaqtda ham barcha xalqlarda yaxshi tayyorlangan mutaxassislar, o`z ishining ustalari hurmat qilinganlar, mahoratga moxirona o`qitish ham yuksak baholangan.

Pedagogik fan tarixidan ko`rinib turibdiki o`qitish va kadrlar tayyorlashning yanada mukammal metodlarini va usullarini izlash doimiy davom etib kelgan.

O`qitish – bu uning jamiyat taraqqiyoti uchun samarasi pedagogning faoliyati yakunlanishi bilan darxol ko`rinmasa ham har qanday boshqa faoliyat kabi ishlab chiqarish faoliyatidir.

Jamiyat tarixida iqtisodiy davrlar faqatgina nimalar ishlab chiqarilishi, kim tomonidan qancha ishlab chiqarilishi, mehnatning qaysi vositalari bilan ishlab chiqarilishi bilangina farq qilmaydi.

Ijtimoiy tarixda mavjud bo'lgan "pedagogik davrlar" qo'yidagicha:

- Individual pedagog, qo'l bilan ishlaydigan pedagogning faoliyat davri (qadimgi davrlardan boshlab XVII asrgacha);

- O'quv kitobi davri (XVII asrdan hozirgi davrgacha);

- Audiovizual vositalar davri (XX asrning 50-yillari).

- O'qitishni boshqarishni avtomatlashtirish oddiy vositalari davri (XX asrning 70-yillari).

- Zamonaviy hisoblash mashinalari asosida ta'limni boshqarishni avtomatlashtirishda adaptiv vositalar davri (XX asr oxiri kompyuterni o'qitish).

Pedagogik davrlar, jamiyat tarixida davr almashishi sodir bo'lishi va har bir yangi, yanada taraqqiy etgan davr ilgarigisining iqtisodiy asosini tugatishi bilan farq qiladi. Pedagogik davrlar esa yo'q bo'lib ketmaydi, ular uchun xos bo'lgan pedagogik texnologiyalar esa har bir keyingisida go'yoki bog'lanib boradi, boyitilib, o'z kuchini oshirib va natijada yangi sifat va xislatlarga ega bo'lib boradi va bu jarayon yanada katta tezlanishda sodir bo'lib boradi.

Insoniyat tarixida I davr ancha ko'p davom etgan - o'zining shaxsiy jismoniy kuchi va organlari, bilimi va o'zining shaxsiy mahoratidan boshqa hech narsa bilan qurollanmagan o'qituvchi faoliyati. Keyinchalik unga hayotiy va diniy mazmundagi qo'l yozma kitoblar yordam beradi, lekin uning mazmuni o'quvchilarga bevosita emas, balki yana o'qituvchining o'zi faoliyati orqali etkaziladi va shunday tarzda katta o'zgarishlarsiz insoniyat tarixi mingyilliklarida davom etadi. Bu holat XVII asrgacha, to "Buyuk didaktika" davri - kitobning o'quvchining o'zi uchun zarurligini asoslab bergan birinchi ilmiy pedagogik asargacha davom etadi. Bu asarning muallifi Yan Komenskiy har bir o'quvchining oldida individual o'quv kitobi bo'lishi kerak deb hisoblagan. To'g'ri o'quv kitobi bilan o'quvchilar ancha keyinroq, faqatgina XVII asrning o'rtalarida ta'minlana

boshladilar, ular bir asr davomida katta qiyinchiliklar bilan sinflarga yo`l ochib bordilar.

II davr - qog`ozdan o`quv kitobi davri – u hali oxiriga yetmagan, uni yaratish va foydalanish hali mukammal emas, lekin shuni aytish kerakki uni III, VI, V davrlarga asta-sekin aylantiruvchi yangi o`quv vositalari ortidan yetib kelmoqda.

O`quv kitobining o`quvchiga yetib kelishi yo`li murakab, kurashlarga boy bo`ldi. Hozirgi kunda hech kimni “qo`l bilan” o`qitish qoniqtirmaydi. Hozirgi sharoitlarda, mutaxassis-pedagogning professional mahoratiga talablar keskin oshgan davrda V pedagogik davr uchun xos bo`lgan pedagogik texnologiyalarni o`qituvchilar egallab olishga ildamlilik bilan yurishlari zarur.

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining qoloq davlatlari ba'zan quldorlik jamiyatlari qoldiqlarida zamonaviy iqtisodiyot olib bormoqdalar.

Pedagogik taraqqiyot haqida xuddi shunday gapni aytish mumkin, bu yerda ham kirib kelgan V davrning eng ilg`or chegaralariga darhol chiqish va metod, vositalarini egallash mumkin.

Zamonaviy sinflarda o`quv jarayonini kuzatib foydalanilayotgan pedagogik tizim I va II pedagogik davrlarda ekaniga osongina ishonch hosil qilish mumkin, lekin hozirgi paytda ta'lim muassasalarining pedagogik tizimini III va IV davrlarga osongina o`tkazish uchun hamma sharoitlar yaratib berilgan bo`lsa ham.

V davrning kirib kelishi esa kompyuterlarga ega bo`lih va ularni sinflarga olib kirish bilan nishonlanadi. Butun o`quv-tarbiyaviy jarayonini loyihalashtirish yaxlitligi prinsipi har doim ko`zda tutish va unga amal qilish zarur.

XX asr oxiriga kelib ilmiy-texnik taraqqiyot faqatgina ishlab chiqarishni texnologiyalashtirishga olib kelib qolmay, balki madaniyat doirasi, bilimlar gumanitar sohalariga ham keskin kirib keldi.

“Texnologiya” tushunchasi texnik taraqqiyot sababli yuzaga keldi va lug`atlar talqini bo`yicha (techne san'at, hunar, fan; logos – tushuncha, ta'limot) materiallarga ishlov berish usullari va vositalari haqidagi bilimlar to`plami demakdir. Texnologiya shu bilan birga jarayonni bilish san'atini ham o`z ichiga oladi. Texnologik jarayon har doim zarur vositalar va sharoitlardan foydalanish

bilan operatsiyalar ma'lum ketma-ketligini ko`zda tutadi. Texnologiya protsessual mazmunda “qanday qilib, nimadan va qaysi vositalar bilan bajarish kerak?” degan savolga javob beradi.

XX asrning 20-yillarida “pedagogik texnologiya” termini, birinchi bor pedagogika bo`yicha asarlarda tilga olingan. Shu vaqtning o`zida yana bir boshqa – “pedagogik texnika” termini ham tarqaldi. U pedagogik entsiklopediyada 30-yillarda o`quv mashg`ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalangan. Pedagogik texnologiyalarga o`quv va laboratoriya uskunalari bilan ishlash, ko`rgazmali qo`llanmalardan foydalanishlar mahoratlari ham kiritilgan.

O`tgan asrning 40-50-yillarida, o`qitish - o`quv jarayonlarisha texnik vositalarni tatbiq etish boshlanganida, “ta'lim texnologiyasi” termini paydo bo`ldi, u keyingi yillar davomida “pedagogik texnologiyaga” aylantirildi.

60-yillar o`rtalarida bu tushunchaning mazmuni chet ellarda pedagogik nashrlarda va xalqaro konferentsiyalarda keng muhokama etildi, natijada ushbu sohada turli mamlakatlarda (AQSh, Angliya, Yaponiya, Frantsiya, Italiya, Vengriya) va darajasiga qarab uni talqin qilish ikki yo`nalishi belgilandi.

Birinchi yo`nalish tarafdorlari texnik vositalar va dasturlashtirilgan o`qitish vositalarini qo`llash zarurligini ta'kidladilar (technology in education).

Ikkinchi yo`nalish tarafdorlari esa o`quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish va pedagogik g`oyalarning texnikaning keskin rivojlanishidan ortda qolishini yo`qotish muhim deb hisobladilar. Shunday qilib 1-yo`nalish “o`qitishda texnik vositalar” sifatida belgilandi, biz biroz keyinroq yuzaga kelgan 2-yo`nalish “o`qitish texnologiyasi” yoki “o`quv jarayoni texnologiyasi” sifatida belgilandi.

70-yillarning boshlarida turli xildagi o`quv uskunalari va quv vositalarini modernizatsiyalashtirish zarurligi anglab etildi. Bularsiz o`qitishning sifatligi va samaradorligiga erishib bo`lmas edi.

60-yillar o`rtalari va 70-yillarning boshlarida AQSh, Angliya, Yaponiya, Italiya kabi yuksak rivojlangan davlatlarda pedagogik texnologiyalar masalalari

bilan shug`ullanuvi jurnallar nashr etilar edi, keyinchalik bu muammo bilan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va markazlar shug`ullana boshlaydi.

AQSh 1971 yil – “Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar bo`yicha AQSh Assotsiatsiyasi”. Hozirgi kunda mamlakat bo`ylab va Kanadada bu kengashning 50 ta filiallari ish olib bormoqda. AQSh da 1961 yilda “Pedagogik texnologiya” jurnali (Educational Technology), 1971 yilda esa – “Audiovizual o`qitish” jurnali nashr etila boshlandi.

Angliya 1967 yil - Pedagogik texnologiya bo`yicha Milliy kengash 1964 yildan boshlab “Pedagogik texnologiya va o`qitishni dasturlashtiri” (Educational Technology progratted tearing) jurnalini, 1971 yilda – “Pedagogik texnologiya” jurnalini nashr eta boshladi.

Yaponiya - Pedagogik texnologiyalar muammolari bilan 4 ta ilmiy tashkilotlar shug`ullanadi. 1967 yilda “Pedagogik texnologiyalar bo`yicha Milliy kengash” tashkil etildi, uning filiallari 22 ta davlat universitetlarida joylashtirilgan. 1965 yildan boshlab Yapon tilida har uch oyda “Pedagogik texnologiya” jurnal iva ingliz tilida yiliga ikki marta “Pedagogik texnologiyalar sohasida tadqiqotlar” jurnali nashr etiladi. Yaqinda “Pedagogik texnologiyalar bo`yicha umumiyapon Markaziy kengashi” tashkil etildi, u muammolar bo`yicha xalqaro aloqalar o`rnatish bilan ham shug`ullanadi.

Italiya – 1971 yili pedagogik texnologiyalar bo`yicha Milliy markaz tashkil etildi va “Pedagogik texnologiyalar” jurnali nashr etiladi.

Vengriya - 1973 yili o`qitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi. SSSR – 1965 yili SSSR PFA qoshida maktab ta'limi va o`qitish texnik vositalari ITI (NII) tashkil etildi.

“Texnologiya” tushunchasi bu vaqtda ideologik nuqtai nazardan qabul qilinmagan edi. “Maktab va ishlab chiqarish” jurnali nashr etila boshlandi.

O`qitish texnologiyasi bo`yicha Xalqaro seminar (Budapesht, 1977) S.G. Shapovalenko o`qitish jarayonining uchta texnologik prinsiplarini ko`rsatdi:

Bilim va texnikani mukammal egallash.
audiovizual materiallari fondi bilan tanishish.

Ulardan samarali foydalanish metodikasini bilish, shu jumladan ijodiy yondoshishi rivojlanishi ham.

Vengriya olimi L. Salai “o`qitish texnologiyasi” tushunchasiga rejalashtirish, maqsadlarni tahlil qilish, o`quv-tarbiyaviy ishlar jarayonini ilmiy tashkil etish, samaradorligini oshirish maqsadida eng muhim vosita va materiallarni tanlashni kiritib o`qitish jarayonini tashkil etuvchilarni doirasini ancha kengaytirdi. E. Bisterski va J. Sellerlar (AQSh) to`plagan ma`lumotlar bo`yicha o`qitish texnikasi faqatgina yordamchi vosita va yangi sistemadan iborat bo`libgina qolmay, balki o`qish jarayoni tashkiliy shaklini, metodi va mazmunini o`zgartirib uning rivojlanishida katta rol o`ynaydi. Bu esa o`z navbatida o`qituvchilar va o`quvchilar pedagogik fikrlashlariga katta ta`sir ko`rsatdi.

Shunday qilib, o`tgan asrning 70-yillari oxiri 80-yillari boshlarida texnika rivojlanishi va chet elda ta`limning kompyuterlashtirilishi boshlanishi oqibatida “o`qitish texnologiyasi” va “pedagogik texnologiya” tushunchalari o`quv tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va boshqarish vositalari, metodlari sistemasi sifatida tushunila boshlandi.

Amaliy masalalarni yechish uchun sistemali bilimlarni qo`llash, o`quv jarayonida texnik vositalardan foydalanish, XX asrning 80-yillarida zamonaviy pedagogik jarayonning, pedagogik texnologiyaning mohiyatini yanada chuqurroq anglab etishga urinishlar davom etdi.

Rossiya XX asrning 90-yillarida pedagogik texnologiyalar bo`yicha Markaz tashkil etildi, “Maktab texnologiyasi”, “Ta`limda innovatsiyalar” jurnallari nashr etiladi.

O`zbekiston 1997 yili kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilingandan boshlab ta`lim tizimida, pedagogik nashrlarda pedagogik texnologiyalar muammolari dolzarb tadqiqotchilik ob`ektlari sifatida ko`tarila boshlandi.

1999 yilda Respublika ta`lim Markazi qoshida pedagogik texnologiyalar bo`yicha Markaz tashkil etildi. Maxsus jurnallar hozir yo`q, lekin pedagogik texnologiyalar muammolari bo`yicha maqolalar “Xalq ta`limi”, “Pedagogik ta`lim”,

“Ta’lim va tarbiya” jurnallarida, “Ma’rifat”, “O’qituvchilar gazetasi” va boshqa ilmiy-pedagogik nashrlarda bosilib chiqarilmoqda.

1994 yili pedagogik texnologiyalar muammolari bo‘yicha 1-Respublika ilmiy-nazariy konferentsiyasi o‘tkazildi, ma’ruzalar va hisobotlar materiallari maxsus to‘plamda chop etildi.

Pedagog-olimlar U. Nishonaliyev, N.S. Saidaxmedov, N.N. Azizxodjayeva, Ziyamuxammedov, U. Tolipov, B.L. Farberman va boshqalar respublikada pedagogik texnologiyalar muammolari bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar olib bormoqdalar.

1999 yilda O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligi oliy o‘quv yurtlari, akadem litseylar va kasb-hunar kollejlari yuqori rahbar zvenolari uchun maxsus seminar-kengash o‘tkazdi. Pedagogik texnologiyalar muammolari bo‘yicha birinchi nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. 2000 yilda, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti qoshida pedagogika fanlari doktori, professor N.N. Azizxodjayeva rahbarligi ostida innovatsion texnologiyalar Markazi tashkil etildi, bu markaz zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalar muammolari bo‘yicha pedagogik kadrlar malakasini oshirish bilan shug‘ullanadi.

Pedagogika inson faoliyati sohasi sifatida ob'ektlar va jarayonlar ob'ektlarini o‘z ichiga oladi. An’anaviy sub'ektli-ob'ektli pedagogikada (Ya.A. Komenskiy, I. Gerbart) bolaga ob'ekt roli ajratiladi, unga kattalar (o‘qituvchi) tajribasini o‘rgatadi. Bolani hayotga tayyorlash bu – sistemaning yakuniy maqsadidir.

Hozirgi zamon pedagogikasi bolaga o‘quv faoliyatining sub'ekti sifatida o‘zini amalga oshirishga o‘zini anglashga intilayotgan shaxsga kabi murojaat etadi.

Shaxs – bu umumlashtirilgan xilma xil sifatlar tizimida insonning psixik, ma’naviy mohiyati, inson xislatlarining ijtimoiy ahamiyatga ega sifatlari to‘plami, dunyoga bo‘lgan va dunyo bilan, o‘zigava o‘z-o‘zi bilan munosabatlar tizimi, ijtimoiy vazifalar, axloqiy ko‘rinishlar yig‘indisini amalga oshiradigan faoliyat tizimi, dunyoni va undagi o‘zini anglashi ehtiyojlar tizimi, qobiliyatlar, ijodiy imkoniyatlar yig‘indisi, tashqi sharoitga bo‘lgan e’tiborlar yig‘indisi.

Bularning hammasi umumlashtirilgan mazmun “shaxsni” tashkil etadi.

III.BOB.KIMYO FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH

3.1.KIMYO FANINI TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITILISHI

Kimyo fani va kimyo sanoati xalq xo'jaligida eng muhim o'rin tutadi. Rudalardan metallarni ajratib olish, o'simliklardan dorivor va bo'yoq moddalarini olish, shisha va chinni ishlab chiqarish, o'g'itlar, toshko'mir, neft mahsulotlari, rezina hamda boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish xo'jaligimizning eng muhim tarmoqlaridir. Moddalarning tarkibini, xossalari va kimyoga oid qonuniyatlarni talabalar kimyo fanlari orqali tanishib chiqadilar.

XIX asrda ma'danli konlar, metallurgiyaga xos jarayonlar, shisha, chinni, kislota, asos ishlab chiqarishga doir tahliliy tadqiqotlar asosida rivoj topgan anorganik kimyo o'zining yo'nalishi jihatidan kimyoviy fanlar qatorida ikkinchi o'rinni egallagan edi. O'sha zamon olimlari anorganik tayyorlash, sulfat kislotani katalizatorlar ishtirokida ishlab chiqarish, maxsus po'latlar yaratish, metallshunoslik sohasidagi jarayonlarni o'zlarining birinchi o'rindagi muvaffaqiyatlari deb bilar edilar. D.I.Mendeleyevning davriy qonuni va davriy sistemasining kashf etilishi o'tgan asrning olamshumul ilmiy muvaffaqiyati bo'ldi. Bu kashfiyot anorganik kimyoning XX asrdagi egallagan holatini va uning yangi asrdagi rolini belgilab berdi.

XX asrda kimyo fani tez sur'at bilan rivojlandi, termodinamikaning muvaffaqiyatlari kimyoning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi, elektr toki yordamida havodan azot (II)-oksidi olish, Haber usulida sintetik ammiak ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi; radioaktivlikka oid ilmiy va amaliy ishlar ro'yobga chiqdi, magniy organik sintezlar tufayli va koordinatsion birikmalar kimyosining nazariy va amaliy asoslari ma'lum muvaffaqiyatlarga erishdi.

Davriy sistemaning eng og'ir elementlari va ular birikmalarini tadqiq etish sohasi radioaktivlik bilan aloqador ekanligi tufayli anorganik kimyoning yangi bir sohasi – radiokimyo yo'nalishi yaratildi. Bu sohaning muvaffaqiyatlari

kosmokimyoga katta ta'sir ko'rsatdi; natijada kimyoviy elementlarning sintezi yulduzlarda sodir bo'lishi haqidagi g'oyalar muqarrar to'g'ri deb topildi.

Davriy sistemaning yengil va o'rtacha vazndagi elementlarini o'rganish jarayonida tadqiqot olib borgan olimlar tabiatning eng muhim sirlarini ochishga muvaffaq bo'ldilar.

Organik kimyo –hayotiy moddalarni tashkil qiluvchi uglerod birikmalarining o'rganuvchi fandır.

Organik moddalar kishilarga qadimdan ma'lum, ular organik bo'yoqlarni, uzum sharbatini bijg'itib sirka hosil qilishni, o'simliklardan shakar, moy olishni, sovun pishirish bilganlar va bu moddalardan foydalanganlar. Ammo uzoq vaqtgacha organik moddalar aralashma holda ishlatilib kelingan. XIX asrga kelib arab alximiklari sirkadan sirka kislotani, musallas ichimligidan etil spirtini sof holda ajratib olishga muvaffaq bo'ldilar. XVI asrda etil spirtini sulfat kislota bilan ishlash natijasida etil efir olindi. Organik moddalarni sof holda olish va ularni o'rganish XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlariga kelib kuchaydi.


Atoqli shved ximigi I.Ya.Berselius (1779-1848) «O'simlik va hayvon organizmlarida hayot mavjud ekan, ularda moddalarning sintezi jonsiz tabiatdagiga qaraganda boshqacha bo'lib, qandaydir «hayotiy kuch» ning ta'sirida sodir bo'ladi» deydi.

Shu davrda bir guruh ximiklar Berselius izidan borib fanda vitalistik (lotincha vita so'zi «hayot» lis «kuch» demakdir) oqim kelib chiqadi. Bu oqim tirik tabiatdagi moddalarni laboratoriya sharoitida sintez qilib bo'lmaydi, degan idealistik ta'limotni olg'a surib, kimyo fanining taraqqiyotiga to'sqinlik qildi.

1824 yilda Berseliusning shogirdi, nemis ximigi F.Vyoler laboratoriya sharoitida disiandan o'simlik organizmida uchraydigan oksalat kislotani oldi.




disian




oksalat kislota


Ayniqsa F.Vyolerning 1828 yili oddiy anorganik tuz-ammoniy sianitdan hayvon organizmida hosil bo`ladigan mochevinani sintez qilishi vitalistik ta`limotga juda katta zarba berdi. Buning uchun u avval kaliy sianitni hosil qilgan:



So`ngra kaliy sianatni ammoniy sulfat ta'sirida parchalab, ammoniy sianat hosil qilgan:



Ammoniy sianatni qizdirib mochevina olgan:



Bu kashfiyot kimyoda katta burilish yasab, organik moddalarning hosil bo`lishida hech qanday «hayotiy kuch» qatnashmasligini isbotlab berdi.

1842 yili buyuk rus olimi N.N.Zinning nitrobenzoldan anilin olishi, 1845 yili nemis ximigi Kolbening sirka kislota sintez qilishi. 1854 yili fransuz ximigi Bertloning yog`ni hosil qilishi va 1861 yili rus olimi Butlerovning oddiy chumoli aldegididan shakarsimon modda hosil qilishi «hayotiy kuch» haqidagi reaksiya idealistik ta`limotga batamom zarba berdi va organik kimyo faning rivojlanishiga katta yo`l ochildi.

Organik moddalar tarkibida uglerod elementi albatta bo`lishi XVII asrda uzil kesil isbotlandi. Shu bilan birga ko`pchilik organik birikmalar tarkibida uglerod elementidan tashqari vodorod, kislorod, azot va boshqa elementlar borligi aniqlandi.


1861 yili Qozon universitetining professori A.M. Butlerovning organik moddalarning kimyoviy tuzilish nazariyasini yaratishi organik kimyoning rivojlanish tarixida olamshumul ahamiyatga ega bo`ldi.

A. M. Butlerov o`zining «Organik kimyoni to`liq o`rganishga kirish» degan kitobida uglerod birikmalari anorganik birikmalarga nisbatan beqaror ekanligini, uglerod boshqa elementlar bilan birikib xilma-xil birikmalar hosil qilishini, uglerodli ko`pchilik birikmalar bir xil empirik formulaga ega bo`lib, tuzulishi va

xususiyatlari jihatdan farqlanishini ko`rsatib berdi va bu hodisani izomeriya deb atadi.

Uglevodorodlarda vodorod atomlari boshqa elementlarning atomlariga almashinib yangi birikmalar hosil qilishi mumkin. Shu sababli organik kimyoni ba`zan uglevodorodlar va ularning hosilalari kimyosi deb ham ataydilar.

Uglerod birikmalari hosilalarinig kimyoviy xususiyatlari ulardagi funksional gruppalarning xossalariga bog`liq. Masalan, metanda vodorodning bitta atomi aminogruppa-NH₂ ga o`rin almashingan bo`lsa, bu birikma asos xususiyatlariga, karboksil gruppaga -COOH ga o`rin almashingan bo`lsa kislota xususiyatlariga ega bo`ladi:



Nemis ximigi K. Shorlemmer uglerod atomlari o`zaro birikib -C-C- zanjirini hosil qilishini ko`rsatib berdi. Shu tariqa organik kimyo fan sifatida tarkib topib va rivojlanib bordi.

Dastlab organik kimyoda radikallar nazariyasi vujudga keldi. Bu nazariyaning tarafdorlari (Dyuma, Berselius, Libix) noorganik birikmalar oddiy radikallardan, organik birikmalar esa murakkab radikallardan tashkil topgan bo`lib, bu radikallar kimyoviy jarayonlar natijasida bir birikma tarkibidan ikkinchi birikma tarkibiga o`zgarmsdan o`tadi deb tushuntirdilar. Nemis olimi Libix achchiq danak moyidan foydalanib tarkibida benzoil radikali - C₆H₅CO- bo`lgan benzoil aldegidini C₆H₅CHO; benzoy kislotani - C₆H₅COOH benzoil xloridni C₆H₅COCl va boshqalarni ajratib oldi.

Organik kimyoning keyingi taraqqiyoti tubdan yangi nazariya yaratishni taqozo etar edi.

XIX asrning 60 yillariga kelib organik kimyoda katta boy materiallar to`plangan edi, nemis kimyog`arlari Kekule va Kolbelar shotlandiyalik olim Kuper bilan bir vaqtda uglerodning to`rt valentliligini, uning o`z-o`zi bilan, metall va metallmaslar bilan ochiq yoki yopiq zanjir hosil qilib birika olishligini, bunda u

o'zining bir, ikki, yoki uch valentligini sarflashini isbotladilar. Ko'per kimyoviy birikmalardagi bog'lanishni chiziqcha bilan ifodalashni taklif etadi.

1858 yildan boshlab A.N. Butlerov kimyoviy tuzilish nazariyasi ustida ishlay boshladi. Bu nazariyani yaratishda u M.V. Lomonosov va Daltonning atomistik va materialistik qarashlariga asoslangan bo'lib, undan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Molekulada atomlar ma'lum bir izchillikda bog'langanlar; har qanday murakkab molekulaning kimyoviy tabiati undagi atomlarining tabiati, soni, kimyoviy tuzilishiga bog'liq bo'ladi.
2. Molekulada atomlar o'zaro doimiy ta'sirda bo'ladilar. Bevosita bog'langan atomlar bir-biriga ko'proq, bevosita bog'lanmaganlari esa kamroq ta'sir etadi.
3. Molekulaning fizik va kimyoviy xossalari uning kimyoviy tuzilishiga bog'liq bo'ladi.
4. Moddaning xossalarini o'rganish natijasida uning kimyoviy tuzilishini aniqlash mumkin va aksincha uning tuzilishini bilgan holda uning xossalarini aniqlash mumkin.

Bu nazariya avvalgi barcha mavjud nazariyalardan tubdan farq qilib, izomeriya hodisasini, ko'p noma'lum birikmalarning olinish usullarini tushuntirib bera oldi. Bu nazariya keyinchalik Kekule tomonidan yaratilgan aromatik birikmalarning tuzilish nazariyasi hamda Vant Goff va Lebel tomonidan yaratilgan molekuladagi atomlarning joylashish nazariyasini stereokimyoviy nazariyalar bilan to'ldirildi. Kimyoviy tuzilish nazariyasining yaratilishi XIX asrning oxirlarida «Organik kimyo» fani va sanoatining gurkirab o'sishiga sabab bo'ldi. Bu davrga kelib organik kimyoning sintetik usullari kimyo sanoatiga kirib kela boshladi.

Koks kimyosi asosida sintetik bo'yoqlar, portlovchi moddalar, tibbiy dori-darmonlar ishlab chiqarila boshlandi. XX asrning 20 yillariga qadar kimyo sanoati Germaniyada gurkirab o'sdi. 1920 yillardan boshlab AQSH kimyo sanoatining rivojlanishi bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chiqib oldi. Bu yerda organik birikmalarning asosiy xom ashyosi bo'lgan neftdan foydalanildi. Neft

asosida sun'iy yoqilg'i va surkov moylari, erituvchilar, lak va bo'yoqlar, keyinroq esa plastik massalar ishlab chiqarildi.

O'zbekistonda ham keyingi yillarda kimyo fani va sanoati gurkirab o'sdi, ko'plab yangi zavodlar qurildi. Shu jumladan «Navoiyazot», Chirchiq «Elektroximsanoat» birlashmalari, Farg'ona furan birikmalari zavodi, Samarqand, Qo'qon o'g'it zavodlari va boshqalar kimyo sanoatining faxri hisoblanadi. 2000 yilning boshlarida yiliga 125 ming tonna etilen ishlab chiqara oladigan Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi ishga tushirildi.

Yirik kimyogar olimlar, akademik O.S. Sodiqov, S. Yunusov, M.N. Nabiyev, X.U. Usmonov, A.S. Sultonov, Yu.T. Toshpo'latov, M.A. Asqarov, N.R. Yusupbekov, A.B. Qo'chqorovlarning nomi chet-ellarda ham ma'lum.

Diyorimizda tabiiy gaz, neft, paxta, gaz kondensati kabi arzon xom ashyolarning mavjudligi organik kimyo fani va sanoatining rivojlanishiga muhim omil bo'ldi.

Hozirgi kunga kelib organik kimyo fani yuksak darajada rivojlandi. Jonli dunyoning hayot faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan gemin, gemoglobin, xlorofill, vitaminlar, alkaloidlar, antibiotiklar, gormonlar sintez usulida olinmoqda. Nuklein kislotalar to'liq sintez qilib olindi. Ularning oqsil sintezidagi ahamiyati nasl belgilarining saqlanishi va o'tishidagi ahamiyati aniqlandi.

Kimyo fani va sanoatining rivojlanishi natijasida birikmalarni fizik-kimyoviy tekshirishning yadro va elektron para-magnit rezonansi, mass-spektroskopiya, infraqizil spektroskopiya, xromatografiya kabi yangi usullari yaratilib, avvallari oylar, yillar davomida bajariladigan ishlarni yuqoridagi usullar yordamida bir necha soat yoki daqiqa davomida bajarilish imkoniyati to'g'ildi.

3.2.TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI


Metod - yunon tilidan olingan bo'lib, yo'l, usul, yo'naltiruvchi uslub degan ma'noni beradi, ya'ni maqsadga erishish yo'li bo'lsa,

Vosita - metodlarni muvaffaqiyatli amalga oshirmoq uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari, asbob-uskuna, qurol, apparat, kompyuterlar va boshqalar demakdir.

O'qitish usuli deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. O'qitish usullari har ikkala faoliyatning a) o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, b) o'quvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi. Ta'lim berish o'qituvchidan izlanishni, pedagogik mahoratni talab qiladi. Ilmiy salohiyati boy bo'lgan ustozgina mavzuni talabalarga maxorat bilan yetkazib beradi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi, kerakli vositalardan o'z o'rnida foydalaniladi.

- Ta'lim metodi ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Metodlar o'quvchilarning yoshiga ta'limning mazmuniga va funksiyasiga qarab tanlanadi.

Metodlarni har qanday muammoni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:



Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarining bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- Og'zaki metodlar;
- Amaliy ishlar metodi;
- Ko'rgazmalilik metodi;
- muammoli evristik modellashtirish metodi;
- Muammoli izlanish va reproduktiv metod;
- Induktiv va deduktiv metod;
- Rag'batlantirish va tanbeh berish metodi;
- Nazorat va o'z-o'zining nazorat qilish metodi.

O'qitishning og'zaki usullari uch turga a) o'qituvchining hikoyasi, b) suhbat, v) maktab ma'ruzasiga bo'linadi.

Hikoya maktab ta'lim tizimida eng ko'p qo'llanadigan usul bo'lib, u hamma sinflarda barcha fanlarni o'qitishda, maktab ta'limining hamma bosqichlarida qo'llaniladi. Boshlang'ich sinflarda bu ancha qisqa va aniq bo'ladi, sinflarning o'rta guruhiga kelib hikoya ancha kattaroq hajmda va davomli bo'ladi. Yuqori sinflarda hajmi katta bo'ladi, ma'ruzadagi kabi butun darsni band qilmaydi.

Nutq madaniyatini o'stirishda hikoyaning o'rni katta bo'ladi. Shu jihatdan o'qitishning og'zaki usullari ta'limda doimo eng ko'p qo'llaniladi

O'quv ma'ruzasi - o'quv materialini og'zaki bayon qilish uchun muljallangan. Uning hajmi hikoyadan katta bo'ladi. O'quv ma'ruzasi dars yoki mashg'ulotning barcha qismini egallab oladi.

Ma'ruza asosan yuqori sinflar, kollej va oliy o'quv yurtlarida qo'llaniladi. Maktab ma'ruzasi o'tilayotgan mavzuning haqiqiy ilmiy mohiyatini ochib berish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va umumlashtirish yo'li bilan to'liq mashg'ulot davomida bilimlarni izchillik bilan bayon etishdir.

O'quv materialini og'zaki bayon qilish usuli bir qator didaktik qoida va talablarga asosan qo'llaniladi.

1. Bayon qilinayotgan materiallar g'oyaviy jihatdan mazmunli, ilmiy hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lashga qaratilgan bo'lishi kerak.

2. Bayon qilinadigan materiallarning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri ko'rsatish orqali o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish.

3. Bayon qilishda o'quvchining nutqi yagona manba hisoblanadi va u nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

4. Bayon qilishda o'qituvchi ishlatadigan ta'riflar, qoida va qonunlar kitob matnidan farq qilishi, mazmuniga mos bo'lishi kerak.

Suhbat. O'quvchilar darsga yetarli darajada tayyor bo'lsa o'qituvchi rahbarligida muammoli savollarga javoblarni o'zlari axtarib topadigan suhbatlar maqsadga muvofiqdir. Bunday suhbatlar evristik izlanish, axtarib topish xarakterida bo'ladi.

O'qitish jarayonida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo'llaniladi.

Suhbatlar ayniqsa, o'qitishning tarbiyalovchilik xarakterida dunyoqarash, e'tiqodni tarkib toptirishda qo'l keladi. Suhbatlar butun sinf hamda o'quvchilarning ayrim guruhlar bilan ham o'tkaziladi.

Suhbatlar orqali a) o'quvchilarning o'z hayotlarida uchratgan voqea hodisalar yuzasidan savollar berish orqali o'quvchilarning mustaqil fikr qilishlarini amalga oshiradigan holatlarga e'tibor qilish, b) o'quvchilarning ilgari o'rgangan tayanch bilimlarini esga tushirishga erishish lozim, suhbat usuli bilan ish ko'rganda o'qituvchi quyidagilarga amal qilishi lozim:

1. O'qituvchining suhbat uchun tayyorlab kelgan savollari sinf o'quvchilarining hammasiga taalluqli bo'lib, so'roq o'rtaga tashlanishi kerak.

2. O'quvchilardan biri javob berish uchun chaqiriladi.

3. Sinfning hamma o'quvchilari javob berayotgan o'quvchini qunt bilan tinglashi, uning javobini to'ldirishi, tuzatishi, oydinlashtirishga yordam berishini ta'minlashi kerak.

4. O'quvchilarning javobi qay darajada to'g'ri - noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar o'qituvchi tomonidan izohlanishi, yakunlanishi va baholanishi zarur.

Ta'lim jarayonida turli ko'rgazmali usulning muhimligi, o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga o'quvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nihoyat nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Ta'limda ko'rgazmalilik usuli namoyish etish, ilyustratsiya va ekskursiya tariqasida olib boriladi.

Ta'lim jarayonida namoyish etish usulidan foydalanish asosiy materialning xarakteriga - mazmuni, shakli va hajmiga bog'liq. Bu xarakter ikki turlidir.

Aslicha ko'rsatilishi mumkin bo'lgan buyum va narsalar: o'simliklar, ularning tarkibi, hayvonlar, ma'danlar, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar va h.k.

Tasviriy ko'rgazmali materiallar ikkiga bo'linadi. A) buyum, narsa, hodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar, rasm, surat, fotosurat, diafilm va h.k.

B) buyum, narsa, voqealarning biror shartli belgisi orqali ifodalangan simvolik va sxematik tasviriy materiallar geografiya va tarix kartalari, chizmalar, jadvallar, diagrammalar va h.k.

Tasviriy ko'rgazmali materiallar turiligi har xil qo'llashni talab etadi. Masalan, 1. Buyum va narsalarni tabiiy holda ko'rsatishni ikki usulda namoyish etiladi.

a) o'tilayotgan mavzuga oid badiiy ko'rgazma materiallari o'quvchi bayon qilayotgan bir vaqtda (faqat o'qituvchi ko'rsatadi).

b) tabiiy ko'rgazmali materiallarning soni yetarli bo'lsa ular har bir o'quvchiga tarqatib beriladi.

2. Tasviriy ko'rgazmali materiallarning har ikkala turini ham ikki xil usulda olib borish mumkin.

a) ko'rgazmali materiallarni o'qituvchi namoyish etadi.

b) ko'rgazmali materiallar o'quvchiga tarqatiladi.

Ekskursiya metodi. Mavzuni ekskursiya usuli bilan ham ko'rsatish mumkin. Bu usulda o'rganilayotgan narsa hodisalarni tabiiy sharoitda zavod, fabrika, tabiatda, muzey, ko'rgazmalarda tashkiliy ravishda ko'rsatiladi. Agar ko'rsatilayotgan joyda o'tilayotgan mavzu mazmunini keng ochib berish imkoni bo'lsa, buni o'qituvchi oldindan borib kuzatib keyin o'quvchilarni olib boradi,

ekskursiya usulidan foydalanadi, o'quvchilar ekskursiya davomida ob'ekt ustidan ma'lumotlarni eshitish yoki kuzatish bilan chegaralanmasdan zarur materiallarni yozib oladilar, rasmini chizadilar, o'lchash, hisoblash ishlarini olib boradilar.

O'qituvchi ekskursiya oxirida mulohaza va fikrlarni umumlashtirib, xulosa chiqaradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

O'qitishning amaliy metodlari. O'quv axborotini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya, ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni yechish, mehnat harakatlari va boshqalar)

O'qitishning amaliy usullari doirasi keng. Bu usullarga: yozma mashq, tajriba, laboratoriya xarakteridagi mashqlar, mehnat topshiriqlarini bajarish kabilar misol bo'ladi.

O'quvchilarning o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarni mustahkamlash ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosida mashq qilishda

- mashq uchun berilgan topshiriqning maqsadi o'quvchilarga aniq tushuntirilgan bo'lishi;
- mashq ustidan sinf o'quvchilar jamoasi va har qaysi o'quvchilarning shaxsiy intilish, qiziqishini hisobga olishi;
- topshiriq butun sinf o'quvchilarining aktiv faoliyatini ta'minlaydigan bo'lishi va mashqni belgilangan vaqt ichida bajarishi talab etiladi.

Mashq qilishda o'quvchilarning yozma, ijodiy mashqlari alohida o'rin egallaydi. Yozma ijodiy mashqlar ona tili, adabiyot, tarix, geografiya fanlarida ham qo'llanilib, ular insho, referatlar yozish kabilarda o'z aksini topadi.

O'quvchilarning yozma grafik ishlari rasm solish, xaritalar chizish, chizma va sxemalar ishlash, jadval, diagramma, grafik, plakat, albom, stendlar ishlash, laboratoriya mashq ishlari, tajribalar o'qitish jarayonida o'quvchilarga atrofni o'rab olgan ob'ektlarni borliqdagi narsa va hodisalar, ularning shakli, hajmi, tarkibi, tuzilishi, o'zgarish va rivojlanishi qonuniyatlari haqida yangi bilim beradi. Bu usullar o'quvchilar bilan yoppasiga va alohida ish olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarga umumiy politexnik ta'lim berish va mehnat malakasi bilan qurolantirishda asosiy usul bo'lib xizmat qiladi. Bunga misol tariqasida quyidagi testni qarab chiqsak.

Bu usullar o'quvchilarning yangi tushuncha, hodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi. Reproduktiv usullar o'quvchilarning o'quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladi.

Reproduktiv usullar - o'quv materialining mazmuni asosan axborot xarakterida bo'lsa, amaliy harakatlarning usullarini ta'riflash, o'quvchilarning bilimlarini mustaqil qidirib olib bilishlari uchun juda yangi hisoblansa, vaziyatlarni hal qilish uchun tayyor bilimlar yo'q bo'lsa samarali qo'llaniladi.

Bu usulda tafakkur qilish katta samara beradi. Reproduktiv usulda o'quvchilar ilgari yoki yaqinda egallagan bilimlarini qo'llaydi.

Muammoli ta'lim. O'quv materialini o'quvchilar ongida ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolari paydo bo'ladigan qilib o'rganishga tushuniladi. O'quvchilarning fikrlash faoliyatida mantiqiy to'g'ri, ilmiy xulosalarni izlash va o'zlashtirishga rag'batlantiradigan muammoli vaziyatlar vujudga keladi. Har qanday ta'lim o'quvchi uchun muammolidir. O'quvchi ongida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, o'quvchining faol fikrlash faoliyati o'quv materialini puxta o'zlashtirib olishlari haqida sharq pedagoglari qimmatli fikrlar aytib o'tganlar.

Mutafakkir Abu Rayxon Beruniy (937-1048) didaktik qarashlarida o'quvchilarni o'qitish hamda tarbiyalash jarayonida birinchidan turli mavzularda mulohazalar yuritishni, o'quvchining zerikmasligini, zo'riqmasligini ta'kidlagan.

IV.XULOSA

Ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitishda turli tarbiya usullari va vositalaridan foydalanilib, usul tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati va o'zaro ta'sir ko'rsatish natijasidir.

Tarbiya vositalari esa biron - bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi. (Ko'rsatmali ko'nikmalar, kitoblar, radio,televideniye). Bundan tashqari o'quvchilar jalb qilingan faoliyat turlari kinofilmlar, san'at asarlari, o'kuvchining jonli so'zi, bolalar o'yini, sport, badiiy havaskorlik to'garaklari va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo'lishi mumkin.

Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi - tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Masalan, maktab kutubxonasi tarbiya vositasi bo'lishi uchun o'qituvchi va kutubxonachi yozuvchilar bilan uchrashuv, o'qilgan va yangi kitoblarning muhokamasini, taqdimotini uyushtirishi lozim.

Tarbiya natijasi tarbiya jarayonining usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq. Tarbiyachilar ta'sir etishning bola shaxsiyatiga mos usulini eng maqbul usulini tanlab olishi, uning shaxsini o'zgartirishi uchun kerakli shart - sharoit yaratishlari lozim. Tarbiya usullari har bir bolaga har qaysi bolalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi.

Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning murakkab barcha qirralarini o'zida mujassamlashtiradi. Xalq pedagogikasida turli xil tarbiya usullari va vositalaridan foydalaniladi. Bu usul vositalar nihoyatda rang - barang bo'lib, ko'p tomonlari bilan ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullari quyidagi tarzda umumlashtirilgan.

1. Tushuntirish (maslahat berish, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish).

2. Nasihat berish (o'git, undash, ko'ndirish, iltimos qilish, oq yo'l tilash, yaxshiliklar haqida so'zlash, rahmat aytish, duo qilish).
3. Namuna bo'lish (maslahat so'rash, o'rnak bo'lish).
4. Jazo (ta'kidlash, ta'na - gina, tanbeh berish va h.k.)

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullarga o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari, irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari kiradi. Bu guruh usullarining mohiyati shundan iboratki ular orqali jamiyat o'quvchilar ongiga qanday talablar qo'yayotgani yetkaziladi. Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar ishlatiladi. O'quvchilarda siyosiy onglilik va ijtimoiy faolligini tarbiyalash lozim. Tushuntirish bu ijtimoiy ongni shakllan-tirishda eng muhim ishlatiladigan omildir.

Tushuntirishning vazifasi o'quvchilarni yuksak madaniyatli milliy g'ururli qilib tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Tushuntirishda o'quvchilarda mamlakatimiz fuqarosining o'z davlatiga nisbatan huquqlar va burchlar bilan bog'langanligi borasida ma'lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiyalashning roli katta.

Suhbat va hikoya. O'quvchi shaxsini g'oyaviy - axloqiy shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirli usul hisoblanadi. Suhbat axloqiy, estetik, siyosiy, ta'lim va bilimga oid mavzularda uyushtirilishi mumkin. Suhbat davomida o'quvchilarni qalbidagi fikrlarini aytishga jasoratini uyg'otishga, o'quvchilarni fikrlashga majbur qiluvchi savollar berish juda muhimdir. Bu borada bahs va munozaralarning ahamiyati katta.

Hikoya. O'quvchilar, odatda hayotdan va boy badiiy adabiyotdan olingan aniq misol bilan to'liq hikoyalarni tinglaydilar. Ularga axloq mezonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tarixiy, tabiiy boyliklari, san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot, radio, televideniye, Internet tarmoqlaridagi, gazeta va jurnallardagi maqolalar ham qimmatli material bo'ladi. Suhbat ham, hikoya ham

o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda ular tushunadigan so'zlar orqali ravon va jonli o'tkazilishi kerak.

Namuna. O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaqin axloqiy sifatlarni ko'rishlari va namuna olishlari nihoyatda muhimdir. O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi ayniqsa yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsida va hayotda o'zini qanday tutishini, muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar. O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq atvoriga taqlid qiladilar. Xulq atvor bolalarda yaxshi sifatlarning, ba'zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota - onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Maktablarda ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. Bolalar o'z ota - onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadilar. Ularga taqlid qilishga intiladilar. Namuna xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota - bobolarimiz o'z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan, «Qush inida ko'rganini qiladi», «Onasini ko'rib qizini so'ra», «Axloqni axloqsizdan o'rgan», «Bola oldida birovlarining g'iybatini qilma, bolang g'iybatchi bo'ladi». Shu oddiy iboralar ostida qancha fikrlar jamlanib yotganligining guvohi bo'lamiz.

Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish usullari. Bola rivojlanishining o'zligini bilishning asosiy omili bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtai nazaridan yondoshilgan qoida maktab hayotining hamma jabhalarida ta'lim - tarbiya jarayonlariga singib ketadi. Faoliyat o'quvchilar bilimlarini mustaqil egallashga undaydi, ularni qay ixtisosga moyilliklarini aniqlashga ijodiy faoliyat tajribasini hissiy qadriyat munosabatlarini o'zlashtirishlariga yordam beradi. O'quvchilarni birinchi sinfdan boshlab imkoniyat darajasidagi foydali mehnat bilan shug'ullanishlariga erishish lozim. Bunday mehnat ko'pchilik jamoa bo'lib bajarilganida yaxshi natija beradi.

Mashq va o'rgatish usullari. Bolalar faoliyatini oqilona maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish mumkin. Mashq- bolalarni axloq mezonlari va xulq- atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. O'quvchilar

odatlarni yaqinlaridan meros qilib olmaydilar, balki ular bilan muntazam muloqotlari tufayli taqlid qilish tarbiya orqali hosil qilinadi. Oxir oqibatda odat ehtiyojga aylanadi.

Mashq - muayyan hatti- harkatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq natijasida ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli ijodiy jarayondir.

O'rgatish. Ijodiy xulq- atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilarning bajarishlari uchun rejali izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar amaliyot ishlaridir. O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. O'qituvchi bu harakatlarni ko'rsatib berishi, tushuntirishi lozim. Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xillari mavjud. Faoliyatda mashq qilish mehnat ijtimoiy faoliyat, jamoadagi faoliyat, o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgan. Kun tartibi mashqlari maktabda, oilada o'rnatiladigan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog'liq o'z istak va harakatlarini boshqarish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish odatiga o'rgatadi.

Topshiriq. O'quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik talab - bu usul tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab - bu o'quvchining turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatla qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; u yoki bu haraktda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lishi; oqilona harakatlarga undovchi bo'lishi mumkin¹⁵.

O'z - o'zini tarbiyalash usullari. O'quvchida o'z - o'zini tarbiyalashga, ya'ni o'z ustida ongli batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo'ladi. O'z - o'zini tarbiyalash o'quvchilarning o'zini - o'zi idora qilishi organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavqeini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar o'qishda, tarbiyada, dam olishda o'z - o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, o'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydilar. O'z - o'zini tarbiyalash

¹⁵ Педагогика .Ўқув қўлланма. А.Мунавваров таҳририда. Тошкент: «Ўқитувчи», 1996 . 129-бет.

sifatlari bola bunga tayyor bo'lganda, u o'zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarga mustaqillik ko'rsata boshlagan vaqtda paydo bo'ladi.

O'z - o'zini tahlil qilish- o'z shaxsini, fazilatlarini tahlil qilishga xatti - harakatlari haqida o'ylashga o'rgatadi. O'z - o'zini nazorat qilish uchun o'quvchi o'zining yurish -turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va aksincha salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O'z- o'zini baholash- o'quvchining qobiyalitini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordam berib, bu o'z imkoniyatlarini hisob - kitob qilish, chetdan turib xolisona baho berish, o'zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Rag'batlantirish bolaga ishonishga, unga bo'lgan ijobiy qobiliyat va fazilatlarining kuchini e'tirof etishga asoslangan. Rag'batlantirish o'quvchining ko'nglini oladi, uni quvontiradi, yanada yaxshiroq bo'lishga undaydi.

Rag'batlantirish o'quvchining kuchi yetadigan mas'uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish.

Jazolash - tarbiyalanuvchining xatti - harakati va faoliyatiga salbiy baho berish bo'lib, bu tarbiyalanuvchi manfaati uchun qo'llaniladigan tarbiya usuli hisoblanadi.



Tanbeh berish - eng yengil jazo, ogohlantirish - noma'qul xatti - harakatlarning oldini olish uchun ishlatiladi, hayfsan - tanbeh va ogohlantirish kutilgan natija bermasa beriladi.

Uyaltirish - odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or - nomus sharmu hayodir.

Tarbiya jarayoni inson hayotida rivojlanib, takomillashib boradi. Tarbiya tamoyillari va umumiy metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish sohalarining hammasini qamrab olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib boradi, shuning uchun ham tarbiya jarayoni ham, uning qoida va usullari ham takomillashib boraveradi. Tarbiyaning samarasi bu qoida va usullarning to'g'ri qo'llanishiga, bu vosita va usullar muayyan ijtimoiy guruhda tarbiya tizimidan qanchalik o'rin olganiga, ularning tarbiya vazifalari va maqsadlariga qanchalik javob berishiga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. И.А.Каримов «Маънавий юксалиш йўлида» Тошкент. «Ўзбекистон» 1998 й.
2. И. А. Каримов. «Тарихий хотирасиз келажак йўқ». «Мулоқот» журнали. 1998. 5-сон.
3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
4. И.А.Каримов. “Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш- мамлакатни барқарор тараққий эттириш ва модернизация қилишнинг муҳим шарти” мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқи. Халқ сўзи, 2012 йил, 18 февраль.
5. И.А.Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Т., “Ўзбекистон”, 2012, 440 б
6. И.А.Каримовнинг “Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида” китобини ўрганиш бўйича ўқув-услугий қўлланма.-Т., “Ўқитувчи”, 2012, 176 б
7. И.А.Каримовнинг 2011 йилнинг асосий якунлари ва 2012 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “2012 йил ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади” мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. –Т., “Ўқитувчи”, 2012 й
8. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.T., «Sharq», 1998y.
9. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.T., 1998y.
- 10.Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari
- 11.Умумий ўрта таълим мактаблари тўғрисида Низом. Т.
- 12.Педагогика назарияси ва тарихи. Педагогика назарияси. 1-қисм / Олий ўқув юртлари учун дарслик. М.Х.Тохтаходжаеванинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: “Иқтисод-молия”, 2007.
13. Pedagogika. M.H.Tohtahodjaeva, S.Nishanova, J.Hasanboev v.b.T.O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.-400 b.
- 14.Pedagogika Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. J.Hasanboev v.b, O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Noshir, 2011.- 456 b.
- 15.Мавлонова Р., Тўраева О, Ҳолиқбердиев К. Педагогика / Касб-хунар коллежлари учун дарслик. Иккинчи нашр. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001.